O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIT TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida

UDK. 37:371.5-371.597

**MUSTAFOQULOVA MAFTUNA MUZAFFAR QIZI**

# KREATIV YONDASHUV ASOSIDA UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA O’QUV-TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISH

**70110103-Ta'lim muassasalari boshqaruvi mutaxassisligi bo‘yicha**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

## DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar:** dots,v.b, p.f.b.f.d (PhD) B.X.Karimova

**Termiz-2024**

**Magistrlik dissertatsiya mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 202__-yil ___ - ____________dagi №_______-son buyrug'i asosida tasdiqlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti Pedagogika va ijtimoiy ish kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universiteti rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

**Dissertatsiya manzilining QR-kodi:**

Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (______)raqam bilan ro'yxatga olingan.

Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko'chasi 43-uy.)

**Ilmiy rahbar:** dots,v.b, p.f.b.f.d (PhD) B.X.Karimova

**Kafedra mudiri:** p.f.b.f.d.(Phd)M.J.Mirzayev

**Magistratura bo'limi boshlig'i ________ k.f.f.d., (PhD) D.X.Abduraxmonov**

# KIRISH

**Mavzuning asoslanishi va uning dolzarbligi:**Jahonning yetakchi mamlakatlari ta’lim oluvchilarning ehtiyojlari va talablariga asoslangan holda ta’lim xizmatlarini strategik rejalashtirish va boshqarish hisobiga ta’lim muassasalarning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan turli ilmiy tadqiqot ishlari olib bormoqda.Mazkur tadqiqotlarning zamonaviy tendensiyalaridan kelib chiqib, umumiy o‘rta ta’lim muassasalaridagi boshqaruv jarayonini kreativ yondashuv asosida takomillashtirish orqali rahbar xodimlarining boshqaruv samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda fan-texnika rivojlanishi umumta’lim maktablarida olib boriladigan islohotlar ta’lim-tarbiyaning mazmunini o‘zgartirishini, shuningdek, ta’lim tizimini zamon talablari asosida boshqarishni talab etmoqda.

Hozirgi kunda mamalakatimizda umumiy o’rta ta’lim muassasalarida o’quv-tarbiya jarayoni takomillashtirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning sifat darajasini yaxshilash, xalqaro tajribalar asosida malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir ta’lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o’rnatishi, o’quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg’or pedagogik texnologiyalar, o’quv dasturlari va o’quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, rahbar kadrlarning zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobilyatlarini rivojlantirish, boshqaruv jarayonida kreativ usullardan samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.Muxtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Bugungi kunda rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish zarur”[1]. Mazkur vazifalar umumta’lim maktablarini kreativ yondashuvlar asosida ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarish orqali ta’lim tizimidagi tashkiliy-boshqaruv mexanizmlarni takomillashtirishni taqozo etadi.

---

[1]O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. //www.lex.uz

2020-yil 23-sentabrda yangi tahrirda qabul qilingan ”Ta’lim to’g’risida”gi O’RQ-637-sonli Qonun, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059–son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora–tadbirlari to’g’risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-son farmoni, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta’limtizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2020 yil 6 noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmoni, 2018 yil 5 sentabrdagi “Maktab va maktabgacha ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli qarori hamda mazkur sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning ob’yekti:** kreativ yondashuv asosida umumta’lim maktablaridagi o’quv-tarbiya jarayonini boshqarish bo‘lib, tajriba-sinov ishlariga Surxondaryo viloyatining Termiz shahridagi 13-,3-9-sonli hamda Muzrabot tumanidagi 33-12-10-sonli umumta’lim maktab rahbarlaridan iborat jami 80 nafar respondent ishtirok etdi.

**Tadqiqotning predmeti:**kreativ yondashuv asosida umumta’lim maktablaridagi o’quv-tarbiya jarayonini boshqarish mazmuni, pedagogik-shart-sharoitlari, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqotning maqsadi:**umumta’lim maktablaridagi o’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishni takomillashtirish hamda ushbu jarayonning samarali kechishini ta’minlashga yo‘naltirilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirish ko‘zda tutiladi:**

-kreativ yondashuv asosida umumta’lim maktablarida o’quv-tarbiya jarayonini boshqarishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini ochib berish;

-kreativ yondashuv asosida umumta’lim maktablarida o’quv-tarbiya jarayonini boshqarish yuzasidan metodik tavsiya ishlab chiqish;

-umumta’lim maktablarida o’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishning shakl, metod va vositalarni qo`llash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

-muammoga doir tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish va uning samaradorlik darajasini aniqlash asosida ilmiy-tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

-kreativ yondashuv asosida umumta’lim maktablarida o’quv-tarbiya jarayonini boshqarishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini aniqlandi;

-kreativ yondashuv asosida umumta’lim maktablarida o’quv-tarbiya jarayonini boshqarish yuzasidan metodik tavsiya ishlab chiqildi;

-umumta’lim maktablarida o’quv-tarbiya jarayonini boshqarish kreativ yondashuv asosida boshqarishni takomillashtirishning metod, usul va vositalarni qo`llash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

-muammoga doir tajriba-sinov ishlarini amalga oshirildi va uning samaradorlik darajasini aniqlash asosida ilmiy-tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Tadqiqot mavzusi bo’yicha adabiyotlar sharhi (tahlili):** Mamlakatimizda boshqaruv tizimi, ta’lim tizimida innovatsion, kreativ menejmentni rivojlantirish masalalari pedagog olimlarlar Balabanov, Bogolyubov, Afanasyev, Djurayev, Zaynutdinov, O.Xayitov,Ya.Ismadiyarov, A.Magrupov, N.Muxamedova, M.Saidov, M.Mirsolievalar tomonidan, ta’lim tizimini boshqarish, rahbar va pedagog kadrlarning boshqaruv kreativligini rivojlantirish masalalari M.Axmedova, M.Davletshin, G‘.Shoumarov, S.Jalilova, X.Ibragimov, V.Karimova, D.Narziqulova, Z.Nishonova, R.Samarov, A.Xoliqov, N.Safayev,

G.To‘ychieva, N.Shermuxammedova, Sh.Mo‘minov, B.Qodirov, R.Sunnatovalar tomonidan”[2] tadqiq qilingan.

MDH (Markaziy davlatlar Hamdo’stligi) mamlakatlarida rahbarning kasbiy mahoratini shakllantirish sohasida fundamental masalalari Yu.Konarjevskiy, G.Balixin, T.Davidenko, T.Bazarov, N.V.Kuzmina tomonidan, boshqaruv faoliyatida kreativ yondashuv va uning pedagogik-psixologik jihatlarini V.Andreev, A.Ansupov, V.Juravlev, E.Kirshbaum, I.Marinovskaya, V.Svetkov, A.Grishin, I.Ridanova, M.Ribakova, A.Shipilov, V.Slastenin, N.Sunkovalar tomonidan tadqiq etilgan”[3].

Xorij mamalakatlar olimlaridan A.Fayol, M.Gordon, J.R.Evans, R.Kaplan, G.Lettau, R.Nelson, R.Thompson, W.Sarges, S.Winterlar tomonidan ta’limni boshqarishning tashkiliy-metodologik asoslarini hamda boshqaruvda yangicha yondashishning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqishgan bo’lsa, J.Burnett, E.Dihtl, P.Drucker, J.Egan, B.Gardner, E.Grafton, Ph.Kotler, Ch.Lovelock, J.Lambin, S.Moriarty, M.YE.Porter kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida boshqaruv jarayonida kreativlikni oshirishning ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlari o‘z aksini topgan.

Mavjud tadqiqotlarning tahlili umumta’lim maktablarida o’quv-tarbiya jarayonini boshqarishning tashkiliy-metodologik asoslari, boshqaruvda yangicha yondashishning nazariy va amaliy jihatlari hamda ushbu jarayonning samarali kechishini ta’minlashga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar o‘rganilgan bo’lsada, umumta’lim maktablarida o’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish masalasi alohida pedagogik muammo sifatida o’rganilmagan shu bois tadqiqot ishimizni “Kreativ yondashuv asosida umumta’lim maktablarida o’quv-tarbiya jarayonini boshqarish” deb nomladik.

**Tadqiqotda qo‘llaniladigan metodikaning tavsifi:** tadqiqotda muammoga doir adabiyotlarni qiyosiy-tahliliy o‘rganish va umumlashtirish; kuzatish, diagnostik metodlar (suhbat, anketa, so‘rovnoma, intervyu, test); pedagogik-psixologik

[2] Djuraev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti: O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Voris, 2006. – 264 b.;
[3] Конаржевский Ю.А. Внутри школьный менеджмент. –М., 1992.; -428 с.

metodikalar, modellashtirish, pedagogik eksperiment; natijalarni matematik va statistik tahlil etish kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati**. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kreativ yondashuv asosida umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari ochib berilganligi, kreativ yondashuv asosida umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish yuzasidan metodik tavsiya ishlab chiqilganligi, maktablarda bashqarishning kreativ usullarini joriy etish orqali o'quv-tarbiya jarayonining takomillashganligi, umumta'lim maktablarida o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishni takomillashtirishning metod, usul va vositalarni qo`llash asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati kreativ yondashuv asosida boshqarish jarayonini pedagogik-psixologik tahlil etish umumta'lim maktablaridagi o'quv-tarbiya jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida boshqarishga xizmat qiladi.

-tadqiqot jarayonida olingan natijalar umumta'lim maktablarini kreativ yondashuv asosida o'quv-tarbiya jarayonini boshqarishda metodik manba sifatida foydalanishga xizmat qiladi.

-ta'lim muassasalari amaliyotida o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuvlar asosida boshqarish yuzasidan rahbar pedagoglar uchun taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Ish tuzilmasining tavsifi:** Ushbu tadqiqot ishi kirish, 3 bob, 8 paragraf, har bir bob bo`yicha xulosa, umumiy xulosa va tavsiyalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qismdan iborat bo`lib, jami 100 sahifadan iborat.

## I.BOB.TA'LIM MUASSASALARINI KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

### 1.1-§.Kreativ yondashuv asosida ta'lim muassasalarini boshqarish mazmun-mohiyati

O'quv-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirish va zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan yuqoridagi hujjatlarning barchasida ta'lim va tarbiya tizimiga yangiliklarni kiritish, kreativ g'oyalar asosida fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ijodiy yondashuvlarni qo'llab quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish bilan bog'liq umumiy jihatlar mavjud.

"Kreativlik so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, "yaratish" degan ma'noni anglatadi. Kreativlik bu o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmuidir. Kreativlik shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangiliklarni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim"[4]. Kreativ pedagogika muammolari yaxlit pedagogik nazariya va boshqa ijtimoiy fanlar tizimida: pedagogika tarixi va ta'lim falsafasi, umumiy va kasbiy pedagogika va psixologiya, o'qitish va tarbiyalash usullari va texnologiyalari, kasbiy etika va boshqalarda ko'rib chiqiladi"[5]. Hozirgi kunda Respublikamizda barcha sohalar qatorida oliy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayoni takomillashtirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning sifat darajasini yaxshilash, xalqaro tajribalar asosida oliy malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, har bir oliy ta'lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatishi, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobilyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda kreativ usullardan samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

---

[4] Yo'ldashev J."Pedagogik innovatsiyalarni hayotga tadbiq etishning asoslari" T.2012. 128-b

[5] Valenta F. Innovatsiyalarni boshqarish. M.: Progress, 1985.203 b.

Umumiy o’rta ta’limda o’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish deganda, ta’lim jarayoni sub’ektlararo munosabatlarda muloqotli maqsadlarga erishish uchun kasbiy masalalarni hal etishda ijodiy fikrlash orqali real, nostandart metodlarini namoyon qiluvchi ijobiy xatti-harakatlarni tavsiflovchi qobiliyat tushuniladi.Kreativlik kundalik professional faoliyatga ko’proq kiradi va nafaqat yakka tartibdagi korxonalarning, balki mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini rivojlantirish uchun ham asos bo’lib xizmat qiladi.Kreativlik kundalik professional faoliyatga ko’proq kiradi va nafaqat yakka tartibdagi korxonalarning, balki mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini rivojlantirish uchun ham asos bo’lib xizmat qiladi. Kreativlik-shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog’liq ko’nikmalar majmui sifatida namoyon bo’ladi. Kreativlik o’z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko’ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyani qamrab oladi. O’quvchilarning ijodkorli gi va kreativligi tafakkur va muloqot qilishlarida, hissiyot va tuyg’ularida, turli faoliyat turlarida o’z aksini topgan. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham namoyon bo’ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham namoyon bo’ladi. “Bugungi kunda kreativ mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyat ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Qo’yilgan vazifaga faqatgina kreativ ta’lim metodikasini maqsadli holda olib borish bilan erishish mumkin, bunda pedagogik jarayonning har birishtirokchisiga yangi bilimlarni tushuntirish, yaratish va undan samarali foydalanish uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Aynan shuning uchun ham so’nggi yillarda kreativ ta’limni kreativ rivojlanish shakli tadqiqotchi-pedagoglar tomonidan faol o’rganilib kelinmoqda”[6].

Zamonaviy o’rta ta’lim tizimini kreativ yondashuv asosida o’quv-tarbiya jarayonini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va ularni innovatsion tizim

---

[6] Qurbonov Sh, Sayidhalilov E.“Talim sifatini boshqarish”.T.“Turon-istiqbol”, 2008.246-b

asosida amaliyotga tadbiq etish talab etiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev so'nggi yillarda barcha sohalar qatori umumiy o'rta ta'lim tizimini sohasini isloh qilish, raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashga, umumiy o'rta ta'lim tizimga rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini tabiq etishga alohida e'tibor qarata boshladi. Ta'limni boshqarish nazariyasida uning o'ziga xosligi ma'lum mezonlarga ko'ra tasniflangan boshqaruvga turli yondashuvlarda namoyon bo'ladi. Bu yondashuvlar boshqaruv jarayonining mohiyatini belgilab beradi va uning rivojlanishini zamonaviy tadqiq qilish jarayonida tahlil predmeti bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda umumta'lim muassasalar boshqaruv jarayonida ta'lim muassasasining xususiyatini hisobga olish, boshqaruvni rejalashtirish, tashkil etish, rag'batlantirish, natijalarni nazorat qilish maqsadida amalga oshirishni. Ayniqsa, zamonaviy sharoitda ta'lim tizimida shaxs imkoniyatlari va ehtiyojlarini har doimgidan ham ko'proq inobatga olish zarur.Mazkur zaruriyat umumiy o'rta ta'lim tizimida davr talablariga to'la javob bera oladigan, raqobatbardosh va malakali rahbar kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarni hamda ularning boshqaruv kompetensiyalarini doimiy takomillashtirib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shundan kelib chiqib, xalqaro tajribalar umumta'lim maktablaridagi o'quv-tarbiya jarayonini asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash asosida boshqaruvning samarali mexanizmlarini joriy etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Umumta'lim muassasalarini boshqarishning mohiyati, maktabdagi o'quv jarayoni bir kishi tomonidan emas, balki o'qituvchilar, o'quvchilar, maktab rahbarlari, o'quvchilarning ota-onalarini o'z ichiga olgan muhim bir guruh tomonidan amalga oshiriladi. Ularning harakatlarining izchilligi, maqbul yo'llar bilan ta'lim maqsadlariga erishishning muvaffaqiyati uchun ta'lim jarayonini boshqarish masalasini ko'tarish qonuniydir. Avvalo, ta'lim jarayoni sathlarini ajratib ko'rsatish, so'ngra ularning har birida boshqaruv xususiyatlarini aniqlash kerak.Ta'lim muassasasining o'quv rejasi majburiy o'quv fanlari va ta'lim muassasasining o'zi belgilaydigan maktab komponentini o'z ichiga oladi. Maktab ta'limi mazmuni o'quv dasturi orqali boshqariladi.

Bugungi kunda kreativ mutaxassislarni shakllantirish zamonaviy jamiyat ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. Qo'yilgan vazifaga faqatgina kreativ ta'lim metodikasini maqsadli holda olib borish bilan erishish mumkin, bunda pedagogik jarayonning har birishtirokchisiga yangi bilimlarni tushuntirish, yaratish va undan samarali foydalanish uchun sharoit yaratishga imkon beradi. Aynan shuning uchun ham so'nggi yillarda kreativ ta'limni kreativ rivojlanish shakli tadqiqotchi-pedagoglar tomonidan faol o'rganilib kelinmoqda"[7].Xorijiy va mahalliy nashrlarning qiyosiy tahlili kreativlik qobiliyatni o'rganishning falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan ko'p qirrali hususiyatlarini ko'rsatadi.Keltirilgan tahlillarning asosiy tushunchasi-"kreativlik" so'zi mohiyatini falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan deb tahlil qilingan.

Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda sanoat davri innovatsion rivojlanish davriga almashtirilmoqda, bunda bilim, yuqori texnologiyalar va yangi ishlanmalar asosiy rol o'ynaydi. Milliy innovatsion tizimlar yaratilmoqda, ularning maqsadi innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotni qurishdir. Innovatsion jarayonlar iqtisodiyot, ijtimoiy soha, siyosat, ta'lim, fan, texnika, ishlab chiqarish, biznes va boshqa sohalarni qamrab oladi.Innovatsion jamiyatda uning rivojlanishida yangi g'oyalar va innovatsiyalar katta rol o'ynaydi. Rivojlanishning innovatsion bosqichida axborot va bilim ijodiy tafakkurning sub 'ektiga aylanadi, ularning mahsuli katta ijtimoiy-iqtisodiy samaraga ega bo'lgan yangi g'oyalardir.

O'quv-tarbiya jarayoniga kreativ yondashish mamlakatimizda ta'lim-tarbiyaning innovatsion turi sifatida o'z mavqeini mustahkamlamoqda, uning asosiy yo'nalishi kreativ fikrlashni shakllantirish, kreativ qobiliyat va intellektual salohiyatni rivojlantirish, zamonaviy muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni izlashdir.Bu qoidalar innovatsion ta'limni rivojlantirish milliy ta'lim tashabbusida o'z ifodasini topgan bo'lib, u ijodiy shaxsni rivojlantirish va uzluksiz ijodiy o'z o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini takomillashtirishga qodir

[7] Afanasyev M., Myasnikova L. Jahon raqobati va iqtisodiyotning klasterlanishi// Vopr. iqtisodiyot. 2005. № 4. S. 75 -81

innovatorlarni yetishtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilab beradi. “Umumiy o’rta ta’limda o’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish rahbar kadrlarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, bilim va ko’nikmalarni shakllantirish salohiyatiga aylantirish orqali uning kasbiy ongida innovatsiyalarga bo’lgan munosabatni mustahkamlashga qaratilgan.”[8].Rahbarning ta’lim muassasasini rivojlanish muammolarini ko’rish va ularni hal qilish variantlarini loyihalash doirasini kengaytiradi. Umumiy o’rta ta’limda o’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda eng keng qamrovli va samarali usul- bu haqiqiy kasbiy muammolarni hal qilish, aniq vaziyatlarni tahlil qilish, o’quv guruhining birgalikdagi faoliyati, mustaqil ishlash shaklida amalga oshiriladigan harakat bilan tavsiflanadi.

O’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda fanlarni tanlash, o’quv guruhlarini shakllantirish, o’quvchilarning individual ish hajmi, salomatligini muhofaza qilish, shuningdek, amaliy tadbirlarning shakllari, soni va taqsimoti muhim hisoblanadi. Kreativ yondashuvi ta’lim-tarbiya jarayonidagi boshqaruvda fanlarni tanlash, o’quv dasturini mustaqil tanlash yoki uni tanlashda ishtirok etish imkoniyati katta ahamiyatga ega. Majburiy fanlar majmuini qat’iy belgilab beruvchi davlat standartidagi ta’lim muassasasining buyrug’i ham mavjud. Maktablar erkin tanlash fanlarini o’qitishga o’tishi va istiqbolli muammolarni hal qilish uchun innovatorlarni tayyorlashi zamon talabidir.Kreativ boshqaruvda umumiy o’rta ta’lim ko’p va fanlararo tadqiqotchilarni tayyorlash uchun yangi turdagi ta’limdir. Ta’lim guruhlarini shakllantirish kreativ ta’limning muhim nuqtasidir.Umumiy o’rta ta’limda o’quv-tarbiya jarayonini boshqarishda turli nazorat shakllari: yozma ish, test sinovlari, suhbatlar, imtihonlar, fanlararo tadqiqotlardan foydalanish talab etiladi.

Rahbarlarning kreativ qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish hamda innovatsiyalarni yaratish va muammo yechimini topishga yo’naltirish, faoliyat turlarini tahlil qilish kabilarni maqsad qilib olingani aynan umumiy o’rta ta’lim

[8] Nikolaeva A.D. Ta’limni boshqarishga strategik yondorisha//Asosiy tadqiqot. - 2014. - No 8-7. - S. 1667-1671; URL: http://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=35274

o'quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishga bo'lgan ehtiyojni talab qiladi.Kreativlik yondashuvi asosida boshqaruv ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirish, tinglovchilarning ta'lim dasturlarini shakllantirishda faol ishtirok etishni o'z ichiga oladi.

Menejmentning mohiyati va boshqaruv faoliyati bosqichlari to'g'risida yuqoridagi tushunchaga asoslanib quyidagi ish ta'rifi taklif etiladi: o'qitishni boshqarish- bu o'qituvchi va o'quvchining o'zaro yo'naltirilgan va bir-biriga bog'liq bo'lgan o'zaro ta'siri sharoitida ta'lim va tarbiyaviy vaziyatlarni bashorat qilish, loyihalashtirish, hal etish, ularni rivojlantirish va o'z-o'zini rivojlantirishning maqsadga muvofiq yo'nalishida motivatsiya va aks ettirish vositalarini taqdim etish.

Ushbu ta'rif quyidagi ta'limni boshqarish ko'nikmalarini ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

-ma'lumot to'plash, uni qayta ishlash qobiliyati; "ko'rish" qobiliyati (ta'lim va pedagogik vaziyatni bashorat qilish, loyihalash, tahlil qilish);

-muammolarni ta'kidlash qobiliyati (bu vaziyatning sabablari); muammolarni hal qilish uchun vazifalarni belgilash qobiliyati;

-pedagogik vazifaga erishish mezonlarini belgilash qobiliyati;

-vazifaga erishish yo'llarini aniqlash qobiliyati;

-vazifaga erishish uchun harakatlarni bashorat qilish qobiliyati;

-ularni amalga oshirish qobiliyati (motiv yaratuvchi, kommunikativ, idrok-refleksiv);

-olingan natijani kerakli bilan solishtirish qobiliyati; erishilgan natijani baholash qobiliyati;

-o'zgarishlarga javob berish, harakatlarda tuzatishlar kiritish qobiliyati; boshqalarning va o'zlarining faoliyatidagi o'zgarishlarni bashorat qilish, loyihalashtirish va amalga oshirish qobiliyati. Ushbu ko' nikmalar o'quvchini o'qitishni boshqaradigan o'qituvchining faoliyati va uning o'qitilishini

boshqaradigan o’quvchining faoliyati bilan bir xil darajada bog' liqdir. Bunga bog'liq maktab o'quvchisining ta'limini boshqarish turi boshqaruv harakatlarini amalga oshirishning algoritmik xususiyatiga ko'ra dasturiy va vaziyatli, boshqaruv harakatlari paydo bo'lish manbasiga ko'ra esa buyruqbozlik va refleksiv bo'lishi mumkin.

Ta'lim muassasalari rahbarlari maktabning turmush tarzini ta'lim muhitining, hamkorlik va hamkorlikning sifati bilan bog’liq holda rivojlantishi lozim. Maktab hayotining mazmuni va tashkil etilishi, texnologik tayyorlash va boshqarish, o'qituvchilar malakasini oshirish tizimining mazmuni maktab faoliyatini rivojlantirish shartlaridandir.Boshqarishning mohiyati, maktabdagi o'quv jarayoni bir kishi tomonidan emas, balki o'qituvchilar, o'quvchilar, maktab rahbarlari, o'quvchilarning ota-onalarini o'z ichiga olgan muhim bir guruh tomonidan amalga oshiriladi. Ularning harakatlarining izchilligi, maqbul yo'llar bilan ta'lim maqsadlariga erishishning muvaffaqiyati uchun ta'lim jarayonini boshqarish masalasini ko'tarish qonuniydir.Avvalo, ta'lim jarayoni sathlarini ajratib ko'rsatish, so'ngra ularning har birida boshqaruv xususiyatlarini aniqlash kerak.

Ta'limni boshqarish turlarining bunday bo'linishi, albatta, rasmiy xususiyatga ega. Ammo ularning izolyatsiyasi o'quv-tarbiyaviy vaziyatga, o'quvchining o'qishdagi sub'ektivligi darajasiga qarab, boshqaruv harakatlarini tanlashni to'g'ri amalga oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, maktab o'quvchisini o'qitishni boshqarish turlarining nafaqat o'zaro bog'liqligi va o'zaro bog'liqligi mavjud.

Zamonaviy ilm-fan va amaliyotda turli ilmiy makonlar yaratilmoqda, ularda maktab faoliyatini samarali tashkil etishning maqsadli shakllanishi zarurligi to'g'risidagi g'oyalar doirasi yaratilib, muayyan o'quv yurtlarining tuzilmalarini yangilash uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarni, tadqiqotlarni, maktab amaliyotini, turli darajada me’yoriy hujjatlarni o'rganish, ta'limni rivojlantirish istiqbollarini belgilash, milliy maktab hayotining zamonaviy usulda rivojlantirish bir qator qarama-qarshiliklar mavjudligini ko’rsatmoqda. Jumladan:

-ijtimoiy va pedagogik hodisa sifatida maktablar faoliyatini rivojlantirishning hamkorlikdagi birlashtirilgan ilmiy nazariyaning yo'qligi. (Jamiyatning va davlatning talablari o'rtasida shaxsning ma'naviy-axloqiy taraqqiyotini va tarbiyalanishini ta'minlaydigan bunday tuzilmani shakllantirishni taqozo qilmoqda);

- maktablarning faoliyatini samarali shakllantirish va rivojlantirish nazariyasi hamda tarixiy-pedagogik amaliyotini o'rganishda ichki ta'limning ob'ektiv ehtiyojlari va tadqiqot ma'lumotlarining etishmasligi;

-milliy pedagogika tarixida maktablarning samarali faoliyatini shakllantirishdagi muvaffaqiyatli tajriba va zamonaviy pedagogik amaliyotda yuqori ko'rsatkichlardagi maktab namunalarini yaratishga etarlicha e'tibor berilmasligi;

- maktab tuzilmalarining bunday o'zgarishida jamiyatning ko'p tarkibli hayotiga mos keladigan zamonaviy ijtimoiy dasturlar va maktab tuzi lmalari rivojlanishidagi tendensiyalarning nazariy rivojlanmaganligi va hokazo. Ushbu qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bu yo'nalishda ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlarning hajmini orttirishni va ularni o'rganishni talab qiladi.Bundan tashqari, maktab hayotining rivojlanishidagi yetakchi tendentsiyani amalga oshiradigan integratsiya jarayonlarining o'zaro bog'liq ko'p tuzilmaviyligini ta'kidlab o'tishimiz kerak.

Ta'lim muassasasining o'quv rejasi majburiy o'quv fanlari va ta'lim muassasasining o'zi belgilaydigan maktab komponentini o'z ichiga oladi.Maktab ta'limi mazmuni o'quv dasturi orqali boshqariladi.Ta'lim muassasasi ixtisoslashtirilgan ta'limni joriy etish, alohida fanlarni chuqur o'rganish orqali o'quvchilarning ta'lim ehtiyojlarini qondirish to'g'risida jamoaviy qaror qabul qilishga haqlidir.Bu qo'shimcha kiritishni boshlaydi mashg'ulot kurslari, mavzularni o'rganish uchun vaqtni taqsimlash.Bunday qarorni qabul qilishda ta'lim muassasasi rahbarlari o'quvchilar, ularning ota-onalari, jamiyatning iltimoslarini, shuningdek, ta'lim muassasasining kadrlar salohiyatini va o'quv-moddiy ta'minotini oldindan o'rganishadi.

Ta'lim muassasasining o'quv rejasi o'quv fanlar bilan to'ldirilgan bo'lib, ular uchun dasturlar hozirda bilimlarning asosiy mazmuni va o’quvchilarning bilim darajasiga qo'yiladigan talablar shaklida taqdim etiladi. Shuning uchun, bu darajada, birinchisini konkretlashtirish (nazariy) daraja, chunki u dasturlar, o'quv qo'llanmalaridagi o'quv kursining o'ziga xos mazmuni bilan to'ldiriladi.

Ikkinchi darajada etakchi rolni maktab rahbarlari o'ynaydi, chunki ular o'zlarining ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarini yaratishga majburdirlar. Ammo aholining va, avvalambor, bolalarning o'zlarining ta'lim ehtiyojlarini tahlil qilmasdan, ular vakolatli boshqaruv qarorini qabul qila olmaydilar.

Uchinchi daraja- bu ma'lum bir o'quv jarayoni loyihasini yil rejalari shaklida, akademik mavzu, alohida dars bo'yicha yaratishdir. Uchinchi darajada asosiy boshqaruv faoliyati o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

To'rtinchi daraja - bu avvalgi barcha darajalar amalga oshiriladigan real jarayon darajasi. Belgilangan barcha darajalarning o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, har bir oldingisi keyingisining muvaffaqiyati, uning yo'nalishi va sifatini ta'minlaydi.

To'rtinchi darajada o'qituvchining vazifasi o'quv jarayonini tashkil etish usullari, vositalari va shakllari tizimidan foydalangan holda o'quvchilar faoliyatini rag'batlantirishdir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, ushbu darajada moslashuvchan bo'ling, o'quv jarayonida o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarishini ta'minlang.

Umuman olganda, ta'lim jarayonini boshqarish uchun to'liq boshqaruv siklidan foydalanish kerak: uning natijalari to'g'risida ma'lumot olish, uni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va o'quv jarayonini yanada rivojlantirish maqsadlarini shakllantirish, ularga erishishni rejalashtirish, o'zlarini va o’quvchilarni tashkil etish ( va umuman maktabda- butun maktab jamoasi) rejani amalga oshirish, natijalarni nazorat qilish, tahlil asosida jarayonning o'zi ham, uni boshqarish ham tartibga solinishi kerak. O'qitishni boshqarish mohiyatini aniqlash uchun menejmentning barcha jihatlarini birlashtirgan boshqaruv jarayonini tahlil qilishning dastlabki birligini aniqlash kerak.

Bunday birlik boshqaruv holati deb ataladi. Pedagogika nuqtai nazaridan uni tarbiyaviy-pedagogik vaziyat deyish mumkin.Ta'lim-tarbiyaviy vaziyat o'qituvchi va o’quvchi pedagogik o'quv faoliyatining sub'ektlari sifatida faol ishtirok etadigan shart-sharoitlar majmuini birlashtiradi.Ushbu shartlar va sharoitlar to'plami haqiqiy muhitni (ta'lim va tarbiyaviy vaziyat) tashkil etadi, unda o’quvchining boshlang'ich holatidan sifat jihatidan yangisiga o'tishiga ko'maklashish uchun unga qanday ta'sir o'tkazish to'g'risida qarorlar qabul qilinadi.

## 1.2-§.Ta’lim muassasalarini kreativ yondashuvlar asosida boshqarish pedagogik muammo sifatida

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha va maktab’’ ta’lim tizimida katta islohotlar ya’ni DTS, ta’lim tizimining barcha sohalarida, maktablarni zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirish, darsliklarni yangi avlodlarini yaratish bo‘yicha bir qator islohotlar olib borilmoqda.Oz vaqtida sharq mutafakkirlari rahbarlikning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritganlar. IX- X asrda yashab o‘tgan buyuk faylasuf A.N. Forobiy o‘zining” Fozil odamlar shahri” asosida rahbarlikning o‘ziga xos jihatlari haqida to‘xtalib o‘tgan[9]. “Jamiyatda adolat o‘rnatish, shahar davlatni boshqarish yo‘llari, shahar xokimi qanday bo‘lishi lozimligi, rahbar uchun zarur bo‘lgan hislatlar ‘‘haqida qimmatli fikr mulohazalar bildirgan.

Umumta’lim maktablari ta’lim o’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish bu shunday tizimki, bo’lajak mutaxassislarda kreativlikni rivojlantirishga xizmat qilib, pedagog-o’quvchi, o’quvchi-o’quvchi yoki o’quvchi va ma’lum bir vositalar o’rtasidagi munosabatlarga yo’naltiriladi. Rahbarlarning boshqaruv faoliyatini rivojlantirish strategiyalari, muassasaning innovatsion menejment dinamikasi, korporativ boshqaruv samaradorligi, shuningdek loyihalashtirish asosida boshqaruv madaniyatini shakllantirish, rivojlantirish va monitoringini olib borish tamoyillari va ularning klassifikatsiyasi S.Taylor, R.Thorpe, P.R.Sparrow, T.Yu.Bazarov, Ye.I.Kudryavseva, A.T.Sergeev,

[9] Forobiy “ Fozil odamlar shahri”G.A.Qodiriy nomidagi “Xalq me’rosi” nashriyoti 1993 yil 204 bet.

M.Yo‘ldoshev, S.Turg‘unov, A.Magrupov, Ya.Ismadiyarov kabi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. Amerikalik olimlar F.Teylor va D.Mak-Gregor (1906-1964) ta’limoti “Inson munosabatlari” maktabida alohida o‘rin tutadi. Ular “X”, “U”, “Z” nazariyalari bo‘yicha rahbarlarning boshqaruv faoliyatida xodimlarnig mehnatga oid munosabatlarini shakllantirishda ehtiyojlarga asoslangan xulq atvor motivatsiya modelini ishlab chiqqan”[10].

Xorijiy va mahalliy nashrlarning qiyosiy tahlili kreativlik qobiliyatni o’rganishning falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan k o’p qirrali hususiyatlarini ko’rsatadi.Keltirilgan tahlillarning asosiy tushunchasi- “kreativlik” so’zi mohiyatini falsafiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan deb tahlil qilingan.Kreativlik tushunchasi Rey M.Simpson 1922 yilda “American Journal of Psychology” jurnalida amerikalik maktab va kollej o’quvchilarini kreativ fikrlashini aniqlashga bag’ishlangan psixologik tadqiqot ishida bergan. A.X.Maslou kreativlikni 2 turga bo’ladi: iste’dodning kreativligi va shaxsning o’z - o’zini aktuallashtirish kreativligi.

A.X.Maslou “kreativlikni inson tabiatining fundamental xarakteristikasi sifatida ko’radi, yáni barcha insonlardagi tug’ma qobiliyat, lekin hayoti davomida málum ijtimoiy to’siqlar natijasida yo’qolib ketadi deb hisoblaydi”[11].

Ta’lim muassasalarini boshqarish tushunchasi bugungi kunda “Menejment” “Menejer” tushunchalari bilan boyitildi. “Menejment” atamasining ko‘plab tariflari mavjud. “Menejment” inglizcha “menejment”, “menejer” so‘zi esa ishlab chiqarishini tashkil etuvchi shaxs sifatida, ishlab chiqarishini samaradorligini oshirish, foydani ko‘paytirish maqsadida boshqaruv usullariga vositalariga tamoyillariga va shakllari majmuidir. Pedagogik menejmentining maqsadi esa aniq vazifalarni qo‘rib chiqish, menejmenti inson faoliyatning barcha ishlab chiqarishi va ijtimoiy turlariga tegishli degan xulosaga kelishga imkon berishini ifodalaydi

[10] Бодди Д., Пэйтон Р. Основы менеджмента: Пер. с англ./Под ред. Ю. Н. Контуревского– СПб, 1999. – 816 с.
[11] Qurbonov Sh, Sayidhalilov E.“Talim sifatini boshqarish”.T.“Turon-istiqbol”, 2008. 127-b

“Menejmenti mavjud o‘rta imkoniyatlardan natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta’sir etish, ular bilan hamkorlik qilishi jarayonidir.

- ta’lim menejmenti – bu fan va san’at chunki bunda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar katta rol o‘ynaydi;

-menejment mazmunida o‘z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlariga faol qatnashuvi;

- ta’limni boshqarishda jamoatchilik faol qatnashadi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning 2019 yil 23 avgust kuni xalq ta’limi xodimlari bilan telemuloqotida bugungi kunda maktabda olib borilishi lozim bo‘lgan dolzarb vazifalar haqida to‘xtalib,”maktabni obro‘sini ko‘tarish, zamonaviy axborot vositalari bilan jihozlash, darsliklarni yangi avlodini yaratish, bugungi maktab o‘qituvchisini obro‘sini ko‘tarish, umum ta’lim maktablarni kreativ asosida boshqarish,” haqida to‘xtatilib o‘tdi. Menejment - inglizcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida boshqaruvni tashkil etish (boshqarish, boshqaruv hokimiyati, tashkil etish), rahbarlik qilish (rejalashtirish, tartibga solish-muvofiqlashtirish, nazorat qilish) ma’nolarini anglatadi. Pedagogik menejment-ta’limni boshqarishning samaradorligini oshirishga qaratilgan tamoyillari, usullari, tashkiliy shakllari va texnologik usullari majmuidir.Pedagogik jarayonning tuzilishi: maqsad, o‘tkazish, o‘qitish va o‘rganish, usullari, shakllari, vositalaridan iborat.Ko‘rinib turibdiki, har qanday ob’ektning yaxlitligi ham, izchilligi ham, avvalambor, uning elementlari o‘rtasida ma’lum bo‘g‘inlarning mavjudligiga bog‘liq. Falsafada bog‘lanish materiya mavjudligining ob’ektiv shakli sifatida tushuniladi; makon va vaqtda ajratilgan hodisalar mavjudligining o‘zaro bog‘liqligi. elementlarining birligi o‘zaklar ular o‘rtasida bog‘lanishlar o‘rnatilishi natijasida yuzaga keladi. “Boshqaruv” so‘zi odatda aniq bir maqsadga erishish uchun boshqariluvchi tizim (yoki boshqaruv ob’ekti)ga faol ta’sir ko‘rsatish to‘g‘risida gapirilganda qo‘llaniladi.

Xorijiy tadqiqotchilar boshqaruv haqida turli ta’riflar berishgan.

S.N.Tidor boshqaruv ma’nosini quyidagicha tavsiflaydi:

- maqsad yo‘nalishida ob’ektni muvofiqlashtirish;

- maqsadga erishish uchun ob’ektga ta’sir etish;

- maqsadga erishish yo‘nalishida tizimni tashkil etuvchilariga ta’sir etishni vertikal muvofiqlashtirish.

A.I.Kitovning ta’rif berishiga ko‘ra: “Boshqaruv - bu insonlarni boshqarish, ular bilan ishlash”. Mamlakatimizda menejment fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan olimlardan M.Sharifxo‘jayev, Y.Abdullayev va A.Kenjaboyevlar boshqaruv - bu o‘ziga xos yuksak san’at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilishdir deb ta’kidlab, quyidagicha ta’rif beradi: “Boshqaruv - bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir”[12].

Rahbarning o‘z ishini tashkil qila bilishi deganda uning boshqaruv faoliyatini

to‘g‘ri rejalashtirishi, ya’ni buyruq berish, topshiriq ijrosini tekshirish, xodimlar faoliyatini baholash hamda turli xil qarorlar qabul qilishi va uni nazorat qila olishi;

- boshqarishni kollegial tarzda ta’minlay olish qobiliyati;
- ishga oid xat, buyruq, farmoyishlar yoza bilishi;
- turli manbalardan ish uchun zarur axborotlarni olish madaniyati;
- ish haqida qisqa va aniq gapirish, nutq qobiliyati, tinglay bilish madaniyati;
- asoslangan qarorlarni mustaqil va tez qabul qila bilish, maqsadlarga erishishdan xodimlarning moddiy va ma’naviy manfaatdorligini ta’minlash qobiliyatlari;
- yuqori tashkilotlar qarorlarini bajarish ustidan nazoratni ta’minlay bilish, boshqarish jarayonini takomillashtirib borish qobiliyatlaridir.

Boshqaruv uslubi - bu muassasa oldiga qo‘yilgan maqsadlarga erishishda xodimlarni boshqarish hamda boshqaruv jarayonida vujudga keladigan muammolarni hal qilishda qo‘llaniladigan usullar, yo‘llar majmuidir. Boshqaruv

[12] Kenjaboyev A.E. Karimova. B.X.Pedagogik menejment asoslari.O’quv qo’llanma.(Pedagogika – psixologiya yo’nalishi bo’yicha tahsil oluvchi bakalavr talabalari va magistrlari uchun). T:.2023 yil 18-b

faoliyatining uslublarini shakllantirish ma’lum darajada rahbarning yashash va mehnat qilish sharoitlariga asoslanadi.

Boshqaruv faoliyatining samarali uslublarini shakllantirishda rahbarning shaxsiy xususiyatlari, uning ma’lumoti, kasbiy malakasi, yoshi, sog‘ligining holati, shuningdek, bilim darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bilim darajasi - rahbarning boshqaruv jarayonida eng zarur bo‘lgan asosiy shartlardan biri bo‘lib, boshqarish, nazorat qilish, qarorlar qabul qilish, buyruq va ko‘rsatmalar, nasihat hamda maslahatlar berishida ilmiy asoslangan ma’lumotlarga tayanishi zarur hisoblanadi. Ta’lim muassasasini rivojlantirish, boshqaruv jarayonini takomillashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuterlashtirish va kompyuterlar tarmoqlari negizida ta’lim jarayonini axborotlar bilan ta’minlashni rivojlantirish uchun texnika va texnologiyani bilishi va ulardan foydalana olishi, iqtisodiyotni bilishi, boshqarish uslublarini, funktsiyalari va strukturasini bilishi, istiqbolni belgilash hamda boshqaruv jarayonini loyihalash texnologiyalarini joriy eta olishi talab qilinadi. Ta’lim muassasasini rivojlantirish, boshqaruv jarayonini takomillashtirish va ta’lim samaradorligini oshirishda bioritmlar nazariyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bioritmlar nazariyasi - shundan iboratki, bunda ixtiyoriy ta’lim muassasasi sharoitida faoliyat ko‘rsatuvchi pedagoglar va boshqa xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir va sub’ekt bilan ob’ektning o‘zaro ta’sirlari bilan bir qatorda tashqi muhit ta’siri mavjud bo‘ladi. Pedagog xodimlarga bo‘lgan tashqi muhitning ta’siri ularning o‘z faoliyatiga nisbatan moyilligini o‘zgartiradi.

Ta’lim muassasasini samarali boshqarish nafaqat kuchli, majburiy va keng qamrovli ta’sir ko‘rsatish kabi boshqaruv usullari asosida amalga oshiriladi, balki tashkil etuvchi qismlar, lokal, bo‘g‘inlar bo‘yicha aniq belgilangan tartibda ta’sir ko‘rsatish, ta’lim muassasasining barcha bo‘g‘inlarining samarali rivojlanishida yaxshi natijalarga erishishga asos bo‘ladi. Bu bo‘limlar o‘rtasidagi bog‘lanish va aloqalar gorizontal xarakterga ega bo‘ladi.

Boshqaruv jarayoni negizi - har qanday ta’lim muassasasining asosiy vazifasi hisoblangan ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va uni

takomillashtirish negizi boshqariladigan ob'ekt va boshqaruvchi sub'ekt tizimlaridan tashkil topadi. Bu tizim o'qituvchilar, pedagogik xodimlar va o'quvchilar (ob'ekt) va rahbarlar, rahbar xodimlar (sub'ekt) o'rtasidagi aloqa, ya'ni jamoa a'zolarining o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi. Boshqaruv mas'uliyati - ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishish, ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy talablarga mos, ilmiy asosda tashkil etish, pedagogik xodimlar faoliyatini muvofiqlashtirish hamda umumiy manfaatlarni ko'zlovchi natijalarga erishish uchun qabul qilgan qarori, uning ijrosi, o'z xatti-harakati va faoliyati uchun javobgarlikning rahbarlar tomonidan his qilinishidir. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi zamonaviy islohotlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hamda bozor iqtisodiyoti chuqur ildiz otib borayotgan davrda Yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq bir qator yangi talablar yuzaga keldi.

Ular ichida eng muhimlari:

- ijtimoiy-psixologik diagnostika;
- guruhlarda o'zaro shaxsiy munosabatlarni, rahbarlik munosabatlarini tahlil qilish va tartibga solish;
- ta'lim jarayonini va ijtimoiy ixtiloflarni hamda stresslarni boshqarish;
- ta'lim tizimini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash;
- pedagogik xodimlarga bo'lgan ehtiyojlarni tahlil qilish;
- pedagogik xodimlarning kasbiy va ijtimoiy-psixologik moslashuvi hamda ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarish tizimini takomillashtirish;
- ta'lim tizimini boshqaruv jarayoniga yangicha yondashuv;
- ta'lim muassasalarida mehnat-huquqiy munosabatlar masalalaridir.

Bu nafaqat ta'lim tizimidagi boshqaruv muammolarini, balki maktab rahbarlari tomonidan boshqaruvni takomillashtirish hamda uning uslublarini amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, turli darajadagi rahbarlarning boshqaruv faoliyatida muammolarni oldindan ko'rish va ularni ijobiy hal etish qobiliyatlarini shakllantirishni olg'a surmoqda.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar ta’lim tizimini boshqarish mexanizmlarini o‘zgartirish, takomillashtirishni, ya’ni boshqaruvning ma’muriy buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy, zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri bo‘lib, nafaqat boshqaruv muammolari, balki sub’ektlarning boshqaruv faoliyatini tashkil etish va ularni shakllantirish zamirida, eng avvalo, boshqaruv tizimining turli bo‘g‘ini rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishning yo‘l-yo‘riqlarini aniqlash, yangi sharoitlarga muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi. Shundan kelib chiqib, ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etish va boshqarishda fan-texnika yutuqlariga asoslangan boshqaruvning eng samarali, innovatsion metodlaridan foydalanishni, boshqaruv yo‘nalishida bilim, ko‘nikma va malakalarni, yangi shaxsiy va kasbiy sifatlarni talab qiladi. Boshqarish amaliyotidan ma’lumki, rahbarlik faoliyati o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, u rahbardan nafaqat oliy ma’lumotga, balki yetarli kasbiy tayyorgarlikka, boshqaruv yo‘nalishida bilim, ko‘nikma va malakalarga, shuningdek, ma’lum tajribaga ham ega bo‘lishni talab etadi.

Ta’lim muassasalarini boshqarish jarayonida rahbarlarning eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etuvchi funktsiyalaridan biri - bu qaror qabul qilish funktsiyasi bo‘lib, ularning sifati ta’lim muassasasi salohiyatiga, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligiga, xodimlar bilan bir qatorda ta’lim muassasasi faoliyatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.“Boshqaruv masalalariga oid birinchi bayonotlarni Misr papiruslarida, Dajla va Furot daryolari qoshidagi loy lavhalarda hamda Osmon imperiyasi davridan saqlanib qolgan ipak o‘ramlarida topish mumkin”[13].

XX asrning 60-80-yillarida g‘arbda zamonaviy menejment rivojlana boshladi. G‘arb nazariyotchilari boshqaruvning ijtimoiy tizimlar maktabini tashkil

[13] Лвов Л.В. Педагогик менежмент: дарслик. - Челябинск: ЧГАУ, ЮУНОТСРАО, 2008. – 178 с.

qilish maqsadida: kreativ yondashuv asoslarini ishlab chiqishgan; yaxlit tizim bilan uning qismlari munosabatlari masalalarini ko‘rib chiqishgan; bir qancha o‘zgaruvchi omillarning boshqaruvga ta’sirini o‘rganishgan. Bu maktab namoyandalari (amerikalik Ch.Barnard, G.Saymon) zamonaviy menejmentda quyidagi to‘rtga: kreativ, vaziyatli, funktsional va miqdorli yondashuvlarni asoslab berishgan. P.M.Kerjentsev (1881-1940) boshqaruv yo‘nalishida juda katta ahamiyat kasb etuvchi ishlarni amalga oshirgan bo‘lib, uning boshqarish bo‘yicha “Mehnatni ilmiy tashkil etish”, “Boshqarishni tashkil qilish tamoyillari”, “Vaqt uchun kurash”[14] kabi asarlari boshqarish yo‘nalishida darsliklarni yozishda asos qilib olingan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida rahbarlar faoliyatini takomillashtirish, boshqaruv tizimini isloh qilish va rivojlantirishga ham juda katta e’tibor qaratilmoqda. Mazkur sohani isloh qilish, boshqaruv faoliyatini takomillashtirish va rivojlantirishning ilmiy asoslangan yo‘nalishlari, nazariy va amaliy asoslari davlatimizning birinchi prezidenti I.A.Karimovning asarlari va ko‘plab ma’ruzalarida yoritib berilgan bo‘lib, boshqaruv samaradorligini ta’minlash, boshqarish tizimini demokratlashtirishda adolat mezonlarini o‘rnatishning muhimligi va boshqa qator g‘oyalari bugungi kunda ko‘plab rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlarda o‘rganilmoqda.

Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonida ilgarigiday umum o‘rtachilikdan qochgan har bir rahbar ijodkor kadrlarining har tomonlama taraqqiyoti uchun ma’lum ma’naviy, ijtimoiy, ilmiy va boshqa imkoniyatlarni yaratib bermoqda va bu chora-tadbirlar tezlikda jamoa faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mehnat jamoasidagi sog‘lom ruhiy muhitning tarkibiy qismlarini aytib o‘tadigan bo‘lsak, ular asosan umumjahon, umuminsoniy axhloqiy qadriyatlarga mos kelishi va jamoadagi har bir shaxsning ushbu qadriyatlarini qadrlashi bilan belgilanadi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida har qanday jamoada milliy qadriyatlar, davlatning bugungi dolzarb vazifalari, jamoa oldida turgan yaqin va uzoq istiqboldagi mo‘ljal

[14] Kenjaboyev A.E. Karimova. B.X.Pedagogik menejment asoslari.O’quv qo’llanma.(Pedagogika – psixologiya yo’nalishi bo’yicha tahsil oluvchi bakalavr talabalari va magistrlari uchun). T:.2023 yil 86-b

va marralar ham alohida qayd etilgan bo‘lishi zarur. Bu unsuriy bo‘laklar jamoa a’zolari tomonidan maktabgacha ta’lim tashkilotiga sodiqlik ruhi, bog‘chaning maqsadlariga ishonch, sadoqat, ongli intizom, axloqiy poklik, mehnat jamoasi faoliyatidan ruhiy, madaniy, moddiy va ma’naviy qoniqish va boshqa insoniy burch, ehtiyoj, tarbiyaviy omillar bilan mustahkamlanmog‘i lozim.

Jamoaning axloqiy yetukligini ko‘rsatuvchi belgilardan biri bo‘lib aynan mana shu intizom xizmat qiladi. Jamoada ichki burch, har bir a’zoga yuklangan vazifalar qanchalik yaxshi ishlab chiqilgan bo‘lsa u shunchalik jamoa a’zolari tomonidan ruhan yengil bajariladi.

Hozirgi zamon fanida “rahbar”, “lider” yoki “liderlik uslubi” va “rahbarlik uslubi” tushunchalarining nisbati yo‘nalishidagi muammolar eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Bularning ichida ko‘proq ahamiyat kasb etuvchi B.D. Pargin fikriga ko‘ra lider ma’lum bir guruhda shaxslararo munosabatlarni muvofiqlashtirib turadi, mikro muhitning elementi hisoblanadi, kutilmaganda vujudga keladi va uning holatining barqarorligi kamroq bo‘lib, harakatlanishi guruhning kayfiyatiga bog‘liq va u ko‘proq guruhning faoliyatiga aloqador bo‘lgan qarorlar qabul qiladi. Rahbar esa ijtimoiy tashkilot hisoblangan guruhlarda rasmiy munosabatlarni muvofiqlashtiradi va makro muhitning elementi hisoblanadi. Rahbar holatining barqarorligi ko‘proq bo‘lib, u ma’lum bir tizimda bir necha marta ko‘proq vakolatlarga, qaror qabul qilish, buyruq berish, topshiriqlar berish, talab qilish huquqlariga ega. Qaror qabul qilish jarayoni birmuncha murakkabroq bo‘lib, ko‘pgina, turli xil vaziyatlarni qamrab oladi va bu vaziyatlar faqatgina bitta guruhga tegishli bo‘lmaydi. Rahbar ma’lum bir kengroq ijtimoiy tizimning kichik bir guruhida faoliyat ko‘rsatsada, uning harakat doirasi keng hisoblanadi. Ayrim mutaxassislarning fikriga ko‘ra, liderlik jamoa faoliyatining samaradorligini oshirishda rahbarlik tushunchasini to‘ldiradi.

Tadqiqotchi A.Nosirov rahbarlik menejmentida kompetentsiyani muhimligini ta’kidlab o‘z fikrlarini bildiring boshqarishda qo‘yidagi qobiliyat kompetentsiyalari;

1. Standart kompetentsiya ushbu ya’ni faoliyatga oid innovatsion vazifalarni belgilab olishi qobiliyatidir;

2. Asosiy kompetentsiya – ushbu faoliyatga oid innovatsion vazifalarni belgilash olish qobiliyati;

3. Yetarli kompetentsiya kasb faoliyatining yangi turlarini yarata olish qobiliyati;

4. Kasbiy kompetentsiya – pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarga ega boʻlish, oʻz ustida ishlash oʻquvchilarda motivatsiyani shakllantirishdan iborat, deb ta’kidlaydi” [15].Tadqiqotchi D.Temurov - ta’lim muassasasi boshqaruviga oid bilimlarni oʻzlashtirishni amaliy faoliyatiga qoʻllash boʻyicha qoʻyidagi tamoyillarni tavsiya qiladi:

1. Ong va faoliyat birligi. Ushbu tamoyil rahbarning ta’lim muassasasi boshqaruviga oid bilimlarni oʻzlashtirishni va amaliy faoliyatda qoʻllashi.

2. Ta’lim muassasasini boshqarishning ilmiy va gʻoyaviyligi. Mazkur tamoyil boshqaruvga yuksak gʻoyaviylik hamda ilmiy asoslangan quyidagi muvofiq boshqariladi.

3. Ta’lim muassasalarida boshqaruvning izchil va uzviylik .Ushbu tamoyil rahbarlar samaradorligining demokratik harakatda kasb kasb etishini anglatadi .

4. Ta’lim muassasasida rahbar boshqaruvning gumanitar xususiyatlarga ega ekanligi. Mazkur tamoyil ijtimoiy faoliyat negizida umum-jamiyat manfaatlari bilan shaxsiy manfaatlar ifodalaydi.

5. Ta’lim muassasalarini boshqarishga har tomonlama (kompleks) kreativ yondashuv. Ushbu tamoyil oʻziga ta’lim muassasa xodimlari bir ijtimoiy faoliyat birlashtiradi.

6. Ta’lim muassasalarini boshqarishning muayan aniq maqsadga yoʻnaltirilganligi. Mazkur tamoyil ta’lim muassasasining ijtimoiy harakatdagi faoliyati yoʻnalishlaridan kelib chiqqan holda harakatlarning tashkil etishi bilan izohlanadi”. Ta’lim muassasasini boshqarishda ta’lim jarayoni sub’ektlari fikri va

---

[15] Nosirov A. Rahbarning kasbiy kompetentligi va boshqaruv madaniyati , ta’lim menejmenti . jur 2013 yil №6, 2-bet .

mustaqilliklarini shuningdek shaxsiy xususiyatlarini ta'minlash.[16] Ushbu tamoyil pedagogik jarayon ishtirokchilari faoliyatini tashkil etadi, avtoretar boshqaruvning inkor etilishi va demokratik boshqaruvda o'qishini ko'rsatadi.Ta'lim muassasalarini boshqarishda demokratik tamoyillarining ustuvorligi.Ushbu tamoyil boshqaruvda xodimlar shaxsini hurmat qilish, huquq va maqsadlariga daxl etmaslik qobiliyatini aks ettiradi. Biz yuqorida ta'limni boshqarish tizimida zamonaviy ta'lim muassasalarining boshqarishdagi asosiy tamoyillar haqida fikr yuritdik. Ko'p yillik ilmiy tadqiqotlarga tayanib, ta'lim muassasalarini boshqarishga oid o'z fikrlarini havola qiladi. "Pedagogik faoliyatda boshqarish deb, pedagogik jarayonni rejalashtirishni tashkil etish, rag'batlantirish natijalarini nazorat qilish va tahlil etish tushuniladi.Demak, "boshqarish" so'zi bugun modernizatsiya qilinib "menejmenti" so'zi bilan boyitildi. Bugungi kunda prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyevning maktab ta'limiga bergan e'tiborlari va ya'ni 2023-yilni "Inson qadri va sifatli ta'lim yili deb, nomlaganlari barcha umumta'lim maktablari o'qituvchilari va pedagogik rahbarlarga katta ilhom berdi va ta'lim sifatini oshirish maqsadida fidoyilik bilan mehnat qilishiga da'vat etdi.

"Menejment qoidalariga rioya qilib ishlayotgan maktab rahbarlari bugungi ta'lim sohasidagi islohotlarni his etib, boshqarishni zamonaviy kompetentlik qoidalari asosida ishni tashkil etib kuchli instruktiv yetakchilik, aniq belgilangan maqsad, o'qituvchilardan kutilayotgan ijodiy natijalar, o'qib-o'rganish, o'rgatish uchun zaruriy muhit, o'quvchilar va sinfni doimiy kuzatish, oila, maktab, mahalla hamkorlik aloqalarini mustahkamlaydilar"[17]. Yangi ilmiy izlanishlar obod mahalla, obod mahalla, obod uy va namunaviy oila tashabbusi asosida rahbarlik ishlarini tashkil etishni talab qiladi. Nazariy manbalarni tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, rahbarlarning boshqaruv faoliyati va uni rivojlantirish muammosi ko'plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida turli yo'nalishlarda o'rganilgan. Rahbar shaxsini o'rganish muammosi kishilik jamiyatining barcha davrlarida muhim masala bo'lib kelgan. Buning asosiy sababi birinchidan, har bir davrdagi

[16] Temirov D. Ta'lim muassalarini boshqarishda pedagogik tamoyillar uzviyligi .Ta'lim menejmenti jur 2013 yil №6. 95-96 betlar.

[17] Rahmatullaev D.R. Boshqaruv tizimiga rahbar xodimlarni tanlashning mavjud imkoniyatlari va unga zamonaviy yondashuvlar "Sovremennoe obrozovanie" 2016.213-b

munosabatlar o‘ziga xos ravishda ijtimoiy mavqe jihatidan kimningdir yuqori darajada turishini taqozo etgan bo‘lsa, ikkinchidan, insonlarning hayot kechirish tarzi, ravnaqi, darajasi, farovonligi, baxtli turmush kechirishi shu yuqori mavqedagi shaxsga, uning turli fazilatlari va xislatlariga bog‘liq bo‘lganligida. Shu boisdan pedagogik jamoani boshqarish, ta’limning yuqori ko‘rsatkichlarga erishib borishda umumiy o‘rta ta’lim muassasasi rahbarlaridan samarali boshqaruv malakalariga ega bo‘lishni talab qiladi

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlilidan ko‘rinadiki, bizning hududimizda yashab ijod etgan mutafakkirlar hamda davlat arboblarining boshqaruv, rahbarlik muammolariga bag‘ishlangan asarlarida ijtimoiy voqealikka nisbatan psixologik yondashish, insonparvarlik g‘oyalari ustuvor etib belgilangan. Mazkur hujjatda “Umumta’lim maktablari ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va kreativ fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish” strategik maqsad sifatida belgilangan. Ta’lim sifatini oshirish uchun e’tiborni avvalo tizimga qaratish kerak. Ta’limda boshqaruvga doir mummolarning vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri , jamiyat hamda iqtisodiyotning keskin o’zgarib borishida. Qisqa qilib aytganda zamonaviy sharoitda eskicha boshqaruv tizimi bilan qolib ketish bu eng asosiy va katta muammolardan biri. Yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun dastlab boshqarish sohasida malaka oshirish yoki kadrlarni qayta tayyorlashdan o’tkazish kerak. Xususan bugungi zamon talablariga ko’ra ta’lim muassasasini boshqarish aslida murakkab jarayon hisoblanadi. Muammolarni yechimini quyidaga fikrlar bilan yechish mumkin:

- boshqaruvning tarkibiy qisimlari, maqsad va vazifalarini tog’ri tanlash;
- bugungi kunga qadar erishilgan yutuqlarni o’rganib chiqish va tahlil qilish;
- kelgusida qilinadigan ishlarni rejalashtirish;
- ta’lim va tarbiya darajasini oshirishning zamonaviy usullarini tashkil qilish;
- jamiyatimizda tubdan isloh qilingan ta’lim tizimini yaratish.

## 1.3-§.Kreativ yondashuv asosida ta’lim muassasalarini boshqarishning mavjud holati tahlili

Bugungi kunda ta’lim muassasalarini boshqarish nazariyasi ta’lim muassasalarining menejmenti nazariyasi bilan boyitildi. Menejment nazariyasi xodimlarga nisbatan ishonch, ularning unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratish hamda o‘zaro hurmat bilan tavsiflanadi.”Menejment bu – maxsus boshqarish faoliyati, boshqarish to‘g‘risidagi fan bo‘lib, mavjud minimal imkoniyatlardan maksimal natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta’sir etish, ular bilan hamkorlik qilish jarayonidir”[18].Boshqarish ma’lum bir obyektga tashkiliy, rejali, kreativ ta’sir ko‘rsatish demakdir.Ta’lim muassasasining pedagogik faoliyatini boshqarish deb esa pedagogik jarayonni rejalashtirish, tashkil etish, rag‘batlantirish, natijalarni nazorat va tahlil qilishga aytiladi.Olimlar ta’lim menejmentining bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta’kidlab o‘tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

- ta’lim menejmenti “maqsadga muvofiqlik” so‘zi bilan aniqlanadiganma’naviy o‘lchovga ega;
- ta’lim menejmenti–bu fan va san’at (chunki bunda insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar katta rol o‘ynaydi);
- menejment mazmunida o‘z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o‘zaro dialektik birligi;
- ta’limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Ta’lim muassasasini boshqarishning nazariy va amaliy muammolarini hal etish insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning roli va ahamiyati ortib borishi, bozor munosabatlarining rivojlanishi, yangi ijtimoiy tuzilmalarning shakllanishi va ta’lim-tarbiya jarayonlari bilan bog‘liq holda tobora kuchayib bormoqda. Shu sababli, qo'l ostidagilarning faoliyatiga samarali ta'sir ko'rsatish uchun zamonaviy rahbar tashkilot va boshqaruv asoslarini chuqur tushunishga muhtoj. Ta'lim muassasasini zamonaviy

---

[18]Kenjaboyev A.E,.Karimova B.X.Pedagogik menejment asoslari.O’quv qo’llanma.(Pedagogika – psixologiya yo’nalishi bo’yicha tahsil oluvchi bakalavr talabalari va magistrlari uchun). T:.2023 yil 78-b

boshqarishning ushbu mexanizmlari hali ham yaxshi tushunilmagan bo'lsa-da, ilmiy tadqiqotlarning mavjud natijalari rahbarning jamoa a'zolarining tashkilotning samarali ishiga qiziqishini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish qobiliyatini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin.

“Ta’lim sifatini boshqarishga ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish xorijda XX asrning 20-yillarida, mamlakatimizda esa 50-yillarida boshlangan edi. Bu jarayon uzoq vaqt mobaynida jahonda amalga oshirilayotgan ishlardan ajralgan holda olib borildi”[19]. Agar chet elda ta’lim sifatini boshqarish samaradorligini oshirish usullarini izlash ishlari avval boshdanoq ijtimoiy boshqaruvning umumiy nazariyasi yutuqlari asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, mamlakatimizda asosan pedagogika nazariyasi qoidalariga tayangan edi. Ammo 80-yillarning o‘rtalaridan boshlab bu uzilish jadallik bilan bartaraf etila boshladi. Aytish mumkinki, boshqaruv vazifalarini hal etish jarayonlarini o‘rganishi hamda qanday sharoitlarda boshqarishda ushbu vazifalar hal etilishi, ularni hal etish natijasi qanday bo‘lishi lozimligi, u yoki bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga qanday omillar ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi haqidagi bilimlarni olishi darkor. Ushbu savollarga javob yo‘q, uni topish uchun boshqaruv o‘zi nima ekanligi haqida ayrim boshlang‘ich tasavvurga ega bo‘lish lozim. Nazariy manbaalarni tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, rahbarlarning boshqaruv faoliyati va uni rivojlantirish muammosi ko‘plab tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarida turli yo‘nalishlarda o‘rganilgan.

Rahbar shaxsini o‘rganish muammosi kishilik jamiyatining barcha davrlarida muhim masala bo‘lib kelgan. Buning asosiy sababi birinchidan, har bir davrdagi munosabatlar o‘ziga xos ravishda ijtimoiy mavqe jihatidan kimningdir yuqori darajada turishini taqozo etgan bo‘lsa, ikkinchidan, insonlarning hayot kechirish tarzi, ravnaqi, darajasi, farovonligi, baxtli turmush kechirishi shu yuqori mavqedagi shaxsga, uning turli fazilatlari va xislatlariga bog‘liq bo‘lganligida. Shu boisdan pedagogik jamoani boshqarish, ta’limning yuqori ko‘rsatkichlarga erishib

[19]Sh.N.Zaynutdinov, N.R.Qodirxodjaeva. "Menejment" fani bo’yicha o’quv-uslubiy majmua. "Iqtisodiy ta'limdagi o’qitish texnologiyasi" seriyasidan. T.: TDIU, 2006, 156- b

borishda umumiy o‘rta ta’lim muassasasi rahbarlaridan samarali boshqaruv malakalariga ega bo‘lishni talab qiladi.

Rahbar va umuman jamiyatning muhim vazifalaridan biri jamiyat va shaxs manfaatlarini uyg‘unlashtirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish, har bir shaxs va umumiy , yagona ijtimoiy organizm sifatidagi jamoaning manfaatlariga to‘liq javob beradigan ichki tartib va qoidalar, me’yorlarning oqilona tizimini yaratishdir. Jamoa faoliyatining yutug‘i, ko‘p jihatdan, jamiyatning shaxs oyoqqa turishi va rivojlanishi uchun qanday shart-sharoitlarni yaratib berganiga, jamoaning har bir a’zosi ehtiyojlarini qay darajada qondira olishiga bog‘liq bo‘ladi. Lekin inson shaxsi o‘zini namoyon qilish, o‘zining betakrorligini, o‘ziga xosligini isbotlash, jamoadagi boshqa shaxslardan alohida xususiyatlari bilan ajralib turish ehtiyojiga ham ega bo‘ladi. Shaxs, jamiyatning har bir a’zosiga nisbatan qo‘yadigan talablarini tushungan, jamiyat ma’naviyati va axloqi talablariga rioya etgan holda, vaqti-vaqti bilan umumiy tamoyillarga qarshi kayfiyatda yoki munosabatda bo‘lishi ham mumkin.

Boshqaruv inson faoliyatining murakkab turi bo'lib, ta'limni boshqarish - ayniqsa uning ishtirokchilarining yuqori intellektual, umumiy o’rta ta’lim mehnati orqali. Boshqaruv samaradorligini ta’minlash uchun, avvalo, uning uslubiy va nazariy asoslarini bilish, menejment, ta’limda menejment, boshqaruv, pedagogik menejment kabi boshqaruv tushunchalarining mohiyatini ochib berish zarur.Umumta’lim maktabi boshqaruvi - bu ma’muriyat va o‘qituvchilarning o‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning vaqt va mehnatidan oqilona foydalanishga qaratilgan ilmiy asoslangan, chuqur o‘rganish maqsadidagi harakatlaridir. Bu masalalarni hal etish maktab rahbari va o‘qituvchilarning ilm-fanning so‘nggi yutuqlari va ilg‘or tajribasidan umumiy o’rta ta’lim foydalana olishiga, o‘zaro munosabatlariga bog‘liq.

Hozirgi kunda respublikamizda barcha sohalar qatorida ta’lim muassasalarida o’quv-tarbiya jarayoni takomillashtirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning sifat darajasini yaxshilash, xalqaro tajribalar asosida Umumta’lim maktablari malakali mutaxassislar tayyorlash uchun zarur shart-sharoitlarni

yaratish, har bir umumta’lim maktablari ta’lim muassasasini jahonning yetakchi ilmiy-ta’lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o’rnatishi, o’quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg’or pedagogik texnologiyalar, o’quv dasturlari va o’quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, talabalar, ilmiy-pedagog kadrlarni zamonaviy kasbiy bilimlari va kreativlik qobilyatlarini rivojlantirish, yoshlar auditoriyasi bilan ish olib borishda kreativ usullardan samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Umumta’lim maktablari ta’limda o’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish deganda, ta’lim jarayoni sub’ektlararo munosabatlarda muloqotli maqsadlarga erishish uchun kasbiy masalalarni hal etishda umumiy o’rta ta’lim fikrlash orqali real, nostandart metodlarini namoyon qiluvchi ijobiy xatti-harakatlarni tavsiflovchi qobiliyat tushuniladi.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi rahbari amaldagi umumiy o‘rta ta’lim sohasidagi tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni:

- maktab faoliyati va uni rivojlantirishning iqtisodiy asoslarini, jamoani boshqarishning samarali usullarini;

-o‘quv va tarbiya sifati, davlat ta’lim standartlari talablarini joriy qilish natijalari bilan bog‘liq holda xodimlarni ma’naviy va moddiy rag‘batlantirish tizimlari va metodlarini;

-kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish usullari, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlash tartibini;

-ta’lim muassasasi va o‘qituvchilar faoliyatini tahlil qila olishni, ta’lim muassasasi faoliyatidagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilishning samarali yo‘llarini topishni;

-maktabni rivojlantirish dasturini ishlab chiqish, ta’lim muassasasini boshqarishning tashkiliy tarkibini tuzish, shartnomalar tuzishni;

-pedagogik jamoada qulay psixologik muhit yaratishni bilishi lozim.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasida pedagogik xodimlarning mehnatga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirishga, ishchanlikni oshirishga, diqqat e’tiborli bo‘lishga, xodimlarni jipslashtirishga qaratilgan bir qator ilmiy izlanishlar olib

borilmoqda. Umumiy o‘rta ta’lim muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyatida innovatsion yondashuvlar asosida kreativ kompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv, kreativ muhitni yaratish mexanizmlarini takomillashtirish zarurdir.

Ushbu tahlillar natijasida rahbar tomonidan kreativ muhitni yaratishning asosiy ko‘rsatgichlarini quyidagicha ifodalashimiz mumkin:

-xodimlar bilan xushmuomila bo‘lish; har qanday vaziyatda yetakchi bo‘lish;

-ziddiyatli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish; axborotni tez o‘zlashtirish, uning ustida ishlash va o‘z vaqtida pedagogik jamoaga yetkazish; mavjud imkoniyatlardan maqsadli foydalanish;

-yangi, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni o‘zlashtirish;

-o‘zining hamda pedagogik jamoaning faoliyatini tahlil qilish; takliflar kiritish jarayonida jamoani boshqarish;

-xodimlarni boshqarishda ularning shaxsiy va ish unumdorligini inobatga olish;

-pedagoglarning kasbiy malakalarini uzluksiz oshirib borishlarini tashkil qilish;

-davlat ta’lim standartlari talablarini amalga oshirishda mas’uliyatli bo‘lish, o‘quv-tarbiya jarayonini samaradorligini ta’minlash va sifatini oshirish;

- kelajakni oldindan ko‘ra bilish, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni oldindan bilish va ularni samarali yechimini topish;

-boshqaruvni tashkil qilish–xodimlarning ijtimoiy-moliyaviy manfaatdorligini yaxshilash uchun sharoitlar yaratish;

-topshiriqlarni to‘g‘ri va adolatli taqsimlash – qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish, ular ijrosini ta’minlash uchun buyruqlar chiqarish;

-kelishish – xodimlarning qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda, yuzaga kelgan vaziyatni o‘rganib, jamoada ishlar taqsimotini o‘zaro moslashtirish;

-nazorat – o‘rnatilgan tartibda buyruqlar va qarorlar ijrosini kuzatib borish.

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli Qaroriga muvofiq qabul qilingan. Ushbu Nizomga asosan, umumiy o‘rta ta’limning maqsadi Davlat ta’lim standartlariga muvofiq har bir shaxsning ta’lim va tarbiya olishdagi konstitutsiyaviy huquqini ro‘yobga chiqarish umumiy o‘rta ta’limning maqsadi hisoblanadi.Umumiy o‘rta ta’lim o‘quvchilarga bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.Nizomga asosan, o‘quvchilarni soha bo‘yicha puxta, tabaqalashtirilgan holda o‘qitish, ularning intellektual kamol topishini va ularning qobiliyatlari va kasblarga moyilligiga muvofiq ravishda tanlagan mutaxassisliklarni egallashini ta’minlash o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining maqsadi hisoblanadi.

Axborotlar jamg‘armasini shakllantirish va undan jadal foydalanish boshqaruv ishini ilmiy tashkil etishni yuksaltiradi.

Maktab ichki boshqaruvining o‘ziga xosligi quyidagi vazifalarda aniq ko‘rinadi:

1. Ta’lim-tarbiya jarayonini pedagogik tahlil qilish;
2. Maqsad qo‘yish va rejalashtirish;
3. Tashkil qilish;
4. Maktab ichki boshqaruvini nazorat qilish;
5. Tartibga solish.

1. Ta’lim-tarbiya jarayonining tashkil etilishi va rivojlanishini tahlil qilmasdan avval, erishilgan natijalarni hozirgilari bilan taqqoslamasdan turib, uni boshqarib bo‘lmaydi.

Ta’lim muassasasini boshqarish samaradorligi rahbarning ham, o‘qituvchilarning ham pedagogik tahlil uslubiyatini teran bilishlariga bog‘liq. Agar o‘z vaqtida, professional darajada pedagogik jarayon to‘g‘ri tahlil qilinmasa, jamoa orasida o‘zaro bir-birini tushunmaslik, ishonchsizlik kelib chiqadi. Hozirgi paytda pedagogik tahlilning quyidagi uch turi mavjud:

- kundalik tahlil;

- kreativ tahlil;
- yakuniy tahlil.

Kundalik tahlil o‘quv jarayonining borishi va natijasi haqida har kuni ma’lumot yig‘ib, undagi kamchiliklarning sababini aniqlashga qaratiladi. Kundalik tahlil natijasida pedagogik jarayonga o‘zgartirishlar va tuzatishlar kiritiladi. Kundalik tahlilning predmetiga o‘quvchilarning har kungi o‘zlashtirish va intizomlari darajasi, ta’lim muassasasi rahbarining darsga hamda sinfdan tashqari darslarga qatnashishi, maktabning tozalik holati, shuningdek, dars jadvaliga rioya qilish kabi holatlar kiradi.

Kreativ tahlil darslar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlar tizimini o‘rganishga qaratiladi. Kreativ tahlil mazmuni ta’lim metodlarini to‘g‘ri uyg‘unlashtirish,

o‘quvchilar tomonidan bilimlarning puxta o‘zlashtirilishiga erishish, o‘qituvchilarning sifatli tarbiyaviy ishlarni olib borishlari, ularning pedagogik madaniyatini ko‘tarish hamda ta’lim muassasasida innovatsion muhitni tashkil qilishda pedagogik jamoaning hissasini ta’minlash kabilardan iborat.

Yakuniy tahlil o‘quv choragi, yarim yillik va o‘quv yili yakunida amalga oshiriladi hamda asosiy natijalarga erishish yo‘llarini o‘rganishga qaratiladi. Yakuniy tahlil uchun ma’lumotlar kundalik va kreativ tahlillar, joriy va oraliq nazorat yakunlari, o‘quvchilarning va sinf rahbarlarining hisobotlaridan olinadi.

2. Har qanday pedagogik jarayonni boshqarishda asosiy maqsad qo‘yish va reialashtirish muhim kasb etadi.

Boshqaruv faoliyatining maqsadi - ishning umumiy yo‘nalishi, mazmuni, shakli va metodlarini aniqlash. Demak, maqsad - rejaning asosi. Boshqaruvda asosiy maqsad aniqlanganidan keyin, unga erishish uchun qo‘shimcha maqsad qo‘yiladi. Ta’lim muassasasini boshqarishni rejalashtirish pedagogik tahlil asosida belgilangan dasturiy maqsadga muvofiq qaror qabul qilishdir. Bunday qarorlar ma’lum bir muddat davridagi ma’lumotlarni tahlil qilish orqali yoki yakuniy ishlarni bajarib bo‘lgandan so‘ng qabul qilinishi mumkin. Ta’lim muassasasini boshqarish amaliyotida rejalashtirishning quyidagi uchta asosiy shakli qo‘llaniladi:

- muddatli (perspektiv);

- yillik;
- yakuniy.

Muddatli rejalashtirish qoidaga muvofiq so‘nggi yillarda, ta’lim muassasasida amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilish asosida bir necha yilga mo‘ljallab qabul qilinadi.

Ta’lim muassasasida, qabul qilinishi mumkin bo‘lgan muddatli reja quyidagi ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

1. “Rejalashtirilgan muddatda ta’lim muassasasi oldiga qo‘yilgan vazifalar;
2. Guruhlarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, o‘quvchilarning yillik o‘zlashtirish darajasi muddatlari;
3. Ta’lim jarayoniga pedagogik innovatsiya (yangilik) larni olib kirish muddatlari;
4. Ta’lim muassasasining pedagogik kadrlariga qo‘yilgan talablari;
5. Pedagog kadrlar malakasini turli shakllar (kurslar, seminarlar, treninglar) orqali oshirish;
6. Ta’lim muassasasini texnika hamda o‘quv-metodik (qurilish ishlari, axborotlashtirish, ko‘rgazmali qurollar, kutubxona fondini boyitish) ko‘lamini rivojlantirish;
7. O‘qituvchi va o‘quvchilarni ijtimoiy himoya qilish”[20].

Yillik rejalashtirish butun o‘quv yili hamda yozgi ta’tilni qamrab oladi. Yillik rejalashtirish o‘quv yili davomida amalga oshiriladi va ta’lim jarayonini tashkil etilishi (chorak, semestr)ga qarab bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi.

Yakuniy rejalashtirish o‘quv choraklari uchun tuziladi, u bir yillik rejaning aniqlashgan ko‘rinishi hisoblanadi. Shu tarzda rejalashtirishning bunday aniqlashgan ko‘rinishlari o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar qo‘mitasining faoliyatini boshqarishga yordam beradi. Bu rejalar o‘qituvchilar va sinf rahbarlarining ish rejalari bilan aloqadorlikda aniqlashtirilib boriladi. Umuman olganda, boshqarish faoliyatida rejalashtirish vazifasining to‘la amalga oshirilishi ta’lim muassasasi faoliyati

[20] Kenjaboyev A.E,.Karimova B.X.Pedagogik menejment asoslari.O’quv qo’llanma.(Pedagogika – psixologiya yo’nalishi bo’yicha tahsil oluvchi bakalavr talabalari va magistrlari uchun). T:.2023 yil 89-b

samaradorligini oshiradi.

3. Qabul qilingan rejalarni to‘liq amalga oshirish uchun kreativ harakatning boshqaruvchilari uning tarkibiy qismlarini bir-biri bilan aloqada bo‘lishini tashkil etishlari kerak. “Tashkil etish” tushunchasi bir qancha ma’nolarda qo‘llaniladi.

Birinchidan, baho sifatida aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan hamda darsdan tashqari tadbirlarning uyushtirilishini ta‘minlaydigan o‘quv-tarbiya jarayonining maqsadida namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, tashkil etish deganda belgilangan rejalarni amalga oshiruvchi, oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish uchun butun pedagogik jarayonni boshqaruvchi ta’lim muassasasi rahbarlari, o‘qituvchilar, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari faoliyati tushuniladi. Boshqarishni tashkil etuvchi asosiy boshqarmalar sifatida ta’lim muassasasining kengashi, pedagogik kengash, direktor boshqaradigan majlis, direktor o‘rinbosarlarining majlisi, tezkor yig‘ilishlar, metodik seminarlarni qayd etish mumkin.

Ta’lim muassasalarida o‘quv-tarbiya jarayonini rivojlantirish, takomillashtirish, muassasa faoliyati bilan bog‘liq barcha tashkiliy masalalarni muvofiqlashtirish, o‘qituvchi va tarbiyachilarning kasbiy mahorati va ijodkorliklarini o‘stirish maqsadida pedagogik xodimlarni birlashtiruvchi pedagogik kengash faoliyat ko‘rsatadi. Pedagogik kengash faoliyati demokratik va oshkoralik tamoyillariga asoslanib olib boriladi. Pedagogik kengashlarda anketalar, savol-javoblar, nazorat ishlar, tanlov ishlari ko‘riladi. Bundan tashqari pedagogik kengash yig‘ilishlarida ta’lim muassasasi hayoti va faoliyatiga doir dolzarb masalalar hal qilinadi. Shuning uchun pedagogik kengashni turli muhokamali, muammoli masalalardan ozod qilish uchun ta’lim muassasalarda direktor yig‘ilishlari tashkil etiladi. Direktor yig‘ilishlarida rahbariyat va o‘qituvchilar ishtirok etib qolmay, boshqa ishchi xodimlar ham qatnashishlari mumkin. Pedagogik kengash ta’lim muassasasi jamoasining yuqori boshqaruv organi hisoblanadi. Pedagogik kengashning asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ta’lim muassasasining tayyorlangan muhim hujjatlarini muhokamadan o‘tkazadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi;

- ta'lim muassasasining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilaydi;

- ta'lim muassasasida o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va ta'lim samaradorligini oshirishda maqbul shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qarorlarni qabul qiladi;

- ta'lim muassasasi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha yo'l-yo'riqlarni ishlab chiqadi;

- pedagogik jamoaning ma'lum yo'nalishlardagi faoliyatini tahlil qiladi va yakuniy xulosa chiqaradi;

- ta'lim muassasasi pedagogik jamoasi uchun o'z vakolati doirasida me'yoriy talablarni ishlab chiqadi, tasdiqlaydi va bajarilishini nazorat qiladi.

Pedagogik kengash yig'ilishlari qarorlashtirilib, qabul qilingan hujjatlar ta'lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi. Pedagogik kengash faoliyati bir qator hujjatlarda o'z aksini topadi: ish rejasi, kengash bayonnomasi yoziladigan muhrlangan daftar, kengash materiallari, hisobot. Ta'lim muassasasi hujjatlari beshyil davomida ta'lim muassasasida saqlanadi.

Ta'lim jarayonining sifati har jihatdan o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi, pedagogik va metodik mahorati darajasiga bog'liqdir. Ana shu maqsadda ta'lim muassasasida metodik kengash va fan metodik birlashmalari ish olib boradi. Metodik kengash ta'lim muassasasida ta'lim jarayonining sifatini ta'minlash, o'qituvchilarning g'oyaviy-nazariy jihatdan tayyorgarligi hamda pedagogik va metodik mahoratlarini takomillashtirilib borishiga nazariy-metodik jihatdan rahbarlik qiluvchi organdir. Metodik kengashning faoliyat doirasi keng bo'lib, u tomonidan quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- ta'lim jarayonining metodik ta'minot holatini o'rganadi, ta'lim muassasasi metodik ishlarini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi;

- ta'lim muassasasida olib borilayotgan metodik ishlarning istiqbolinianiqlaydi;

- yo'nalish va fanlar bo'yicha metodika birlashmalariga umumiy rahbarlik qiladi va ular faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- ta’limga doir me’yoriy va metodik hujjatlarni o‘rganadi, ularni o‘quv jarayoniga tatbiq etish usullari yuzasidan tavsiyalar beradi;

- ta’lim muassasasi o‘quv-metodik ishlariga ekspert sifatida baho berishni amalga oshiradi;

- o‘qituvchilarning g‘oyaviy-nazariy bilim darajasini oshiradi, ularni fan yutuqlari, pedagogik innovatsiyalar, ilmiy-ommabop adabiyotlar bilan muntazam tanishtirib boradi;

- o‘qituvchilarga ish rejalarining tuzilishi va bo‘limlari mazmuni bo‘yicha tavsiyalar beradi;

- ta’lim muassasasi ta’lim jarayonida qo‘llashi uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqadi va ularning amaliyotga joriy etilishini nazorat qilib boradi;

- o‘qituvchilarning pedagogik va metodik mahoratini oshirishga doir ishlarni amalga oshiradi;

- davlat ta’lim standartlari talablari, o‘quv rejasi va dasturlarining bajarilish holatini tahlil qiladi va tegishli tadbirlarni belgilaydi;

- tashqi va ichki nazorat natijalariga davlat ta’lim standarti talablarining bajarilishida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilaydi va ularning bajarilishini nazorat qiladi;

- o‘quv jarayoniga o‘qitish metodikasining zamonaviy va samarali usullarini olib kirish, pedagogik kadrlarni metodik jihatdan bilimlarini oshirish maqsadida o‘quv seminarlarini tashkil qilish;

- ta’lim jarayonida milliy mafkura va yoshlarda siyosiy ongni shakllantirishga doir ko‘rsatmalar berib borish;

- o‘quvchilar bilimini nazorat qilish va ularning mustaqil ishlarini tashkil qilishga doir ko‘rsatmalar berish;

- yo‘nalish va fanlar bo‘yicha metodika birlashmalari hisobotini eshitish, muhokama qilish, ularning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar berish;

- o‘qituvchilarning samarali mehnatlarini inobatga olgan holda ma’naviy va moddiy rag‘batlantirishga tavsiya qilish;

- pedagogik xodimlarning attestasiyadan o‘tkazish bo‘yicha materiallarni tayyorlash;

- ta’lim muassasasi miqyosida fan oyliklari (haftaliklari), fanlar bo‘yicha darsdan tashqari (fakultativ, to‘garak) ishlari, fan olimpiadalarining 1-bosqichlari, ko‘rik-tanlovlarning o‘tkazilishi va ularning samarasini nazorat qilib borish.

Metodika kengashi yig‘ilishlari qarorlashtirilib, kengashning quyidagi hujjatlari ta’lim muassasasi ish yuritish hujjatlari bilan birga saqlanadi: ish rejasi, kengash yig‘ilishi bayonnomasi, kengash tomonidan tahlil qilingan materiallar, ekspert qilingan materiallar va ishlab chiqilgan metodik ishlar, yillik hisobot.

Ta’lim muassasasida fanlar yoki bir-biriga yaqin bo‘lgan fanlar turkumlari bo‘yicha metodika birlashmalari faoliyat ko‘rsatadi. Metodika birlashmalarining maqsadi o‘qituvchilarning metodik va kasbiy mahoratlarini takomillashtirish, o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishga qo‘yilgan hozirgi zamon talablarining bajarilishini ta’minlash borasida o‘zaro yordamni tashkil etish, ijodiy tashabbuslarni uyg‘unlashtirish va ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy usullarini ishlab chiqishdan iborat.Agar u yoki bu fan bo‘yicha o‘qituvchilar soni uch nafardan kam bo‘lsa, u holda fan o‘qituvchilari shu turkumdagi fan o‘qituvchilari bilan birgalikda bitta metodika birlashmasiga birlashadilar, metodika birlashmasiga ta’lim muassasasi pedagogika kengashi qaroriga asosan ijodkor va tajribali o‘qituvchilardan ta’lim muassasasi direktorining buyrug‘i bilan rahbar tayinlanadi. Metodika birlashmalarining faoliyati quyidagi hujjatlar asosida tartibga solinadi: ish rejasi, birlashma a’zolari haqidagi ma’lumotlar, birlashma faoliyatiga aloqador bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlar, birlashma yig‘ilishi bayonnomalari, hisobotlar.

Maktab ichki nazorati ta’lim muassasasini boshqarishda alohida o‘rin tutadi. Nazoratni tashkil etishda yetishmovchiliklarni bartaraf etish uchun bir qancha talablarni bilish zarur. Bu talablar quyidagilar:

- kreativlik;
- xolislik;
- harakatlilik;
- to‘ldiruvchilik.

Pedagogik boshqaruvga doir adabiyotlarda, ta’lim muassasasi ichki nazoratining quyidagi yo‘nalishlarda tashkil etilishi bayon etilgan:

1. Pedagogik tashkilotchilikka doir savollarning qo‘yilishi;
2. Ta’lim dasturlari, DTSning bajarilish sifati;
3. O‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarining sifati;
4. O‘quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi;
5. O‘qitishning ta‘limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funksiyalarining bajarilish holati;
6. Darsdan tashqari tarbiya ishlarining tashkil etilish holati va sifati;
7. Pedagogik kadrlar bilan ishlash;
8. Ta‘lim muassasasi faoliyatining o‘ziga xos samaradorligi;
9. Qabul qilingan qarorlar va me’yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan talablarning bajarilishi.

Ta’lim muassasasi ichki nazoratining turlari, shakllari va metodlarini turkumlashtirish hozirgi vaqtda muammoli masala bo‘lib qolmoqda. Shunga qaramasdan, ko‘pgina pedagogik adabiyotlarda ichki nazoratning quyidagi turlari ajratilib ko‘rsatiladi (1.3.1-jadval):

**1.3.1-jadval.**

**Ta'lim muassasasi ichki nazorati**




**1.3.1-jadval.Ta'lim muassasasi ichki nazorati**

Pedagogik boshqaruvga doira dabiyotlarda, ta'lim muassasasi ichki nazoratining quyidagi yo'nalishlarda tashkil etilishi bayon etilgan:

Pedagogik tashkilotchilikka doir savollarning qo'yilishi.

"Ta'lim dasturlari, DTSning bajarilish sifati.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining sifati.

O'quvchilarning tarbiyalanganlik darajasi.

O'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi funktsiyalarining bajarilish holati.

Darsdan tashqari tarbiya ishlarining tashkil etilish holati va sifati.

Pedagogik kadrlar bilan ishlash.

Ta'lim muassasasi faoliyatining o'ziga xos samaradorligi.

Qabul qilingan qarorlar va mehyoriy-huquqiy hujjatlarda ko'rsatilgan talablarning bajarilishi"[21].

O'quv-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirish va zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan yuqoridagi hujjatlarning barchasida ta'lim va tarbiya tizimiga yangiliklarni kiritish, kreativ g'oyalar asosida fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash, xorijiy tajribalarni o'zlashtirish, ta'limda zamonaviy yondashuvlarni qo'llab quvvatlash, ta'lim turlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish

[21] Kenjaboyev A.E,.Karimova B.X.Pedagogik menejment asoslari.O'quv qo'llanma.(Pedagogika – psixologiya yo'nalishi bo'yicha tahsil oluvchi bakalavr talabalari va magistrlari uchun). T:.2023 yil 120-b

bilan bog’liq umumiy  jihatlar mavjud.

## Birinchi bob bo`yicha xulosalar

Umumta’lim maktabi boshqaruvi - bu ma’muriyat va o‘qituvchilarning o‘quv jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning vaqt va mehnatidan oqilona foydalanishga qaratilgan ilmiy asoslangan, chuqur o‘rganish maqsadidagi harakatlaridir. Bu masalalarni hal etish maktab rahbari va o‘qituvchilarning ilm-fanning so‘nggi yutuqlari va ilg‘or tajribasidan foydalana olishiga, o‘zaro munosabatlariga bog‘liq.

O’quv-tarbiya jarayoniga kreativ yondashish mamlakatimizda ta’lim-tarbiyaning innovatsion turi sifatida o’z mavqeini mustahkamlamoqda, uning asosiy yo’nalishi boshqaruvda kreativ fikrlashni shakllantirish, kreativ qobiliyat va intellektual salohiyatni rivojlantirish, zamonaviy muammolarni hal qilishda yangi yondashuvlarni izlashdir. Umumta’lim  maktablar o‘quvchilarni mutaxassislik fanlariga kasbiy yo‘naltirishni hamda ularni kelgusida umumta’lim maktablari ta’lim muassasalarida o‘qishini davom ettirishlari yoki mehnat faoliyati bilan shug‘ullanishlari uchun maqsadli tayyorlashni nazarda tutadigan, davlat ta’lim standartlari, davlat ta’lim talablari, o‘quv rejalari va ta’lim dasturlari talablariga mos yangicha dunyoqarashga ega bo’lgan boshqaruv tizimiga ega bo’lishi lozim.

O’quv-tarbiya jarayonini yanada rivojlantirish va zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan yuqorida bildirilgan ilmiy-nazariy fikrlarning barchasida ta’lim va tarbiya jarayonini boshqarish tizimiga yangiliklarni kiritish, kreativ g’oyalar asosida fikrlaydigan rahbarlarni tarbiyalash hamda xorijiy tajribalarni o’zlashtirish, ta’limda zamonaviy yondashuvlarni qo’llab quvvatlash, ta’lim turlari o’rtasidagi integratsiya jarayonlarini amalga oshiradigan kreativ rahbar shaxsini shakllanririshga qaratilgan.

# II.BOB.KREATIV YONDASHUV ASOSIDA UMUMTA’LIM MAKTABLARIDAGI O’QUV-TARBIYA JARAYONINI BOSHQARISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

## 2.1-§.Umumta’lim maktablaridagi o’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish imkoniyatlari

Ta’lim muassasalari faoliyatini zamonaviy yondashuvlar asosida boshqarish yosh avlod tarbiyasida, o’quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion texnologiyalarni joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yangi o’sib kelayotgan avlodning ta’lim sohasida tashkil etilgan zamonaviy moddiy-texnik bazasidan unumli foydalanishni ta’minlash, umumiy o’rta ta’lim tizimidagi yo’nalishlar va mutaxassislar bo’yicha davlat ta’lim standartlari, o’quv dasturlari,o’quv-metodik adabiyotlarni qayta ko’rib chiqish va takomillashtirish borasida ko’plab ishlar amalga oshirildi.

Ta’limni boshqarish nazariyasida uning o’ziga xosligi ma’lum mezonlarga ko’ra tasniflangan boshqaruvga turli yondashuvlarda namoyon bo’ladi. Bu yondashuvlar boshqaruv jarayonining mohiyatini belgilab beradi va uning evolyutsiyasini tarixiy-pedagogik tadqiq qilish jarayonida tahlil predmeti bo‘lib xizmat qilishi, ushbu boshqaruvning yetakchi paradigmasini kvalifikatsiya qilish funksiyasini bajarishi mumkin. Shubhasiz, ularning har biri boshqaruvni shakllantirish jarayonida u yoki bu tarixiy bosqichda ma’lum foyda keltirgan. Zamonaviy yondashuv texnologiyalari asosida ta’lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish turlicha talqin etiladi, masalan, fransuz olimi A.Fayol boshqarishni “kelajakni ko‘ruvchi, tashkilotni idora qiluvchi, faoliyatni tashkillashtiruvchi, faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi, qaror va buyruqlarning bajarilishini nazorat qiluvchi kuchli qurol”[22] deb ataydi. Qator tadqiqotlarda boshqaruv insonlarning xatti-harakatini tartibga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat sifatida izohlanadi. Ayrim tadqiqotchilar boshqaruvni bir tizimning ikkinchisiga, shaxsning ikkinchi bir shaxsga yoki guruhga ta’sir etishi yoki

[22]Закирова Ф. М., Позилова Ш. Х. Креативное обучение на курсах повышения квалификации преподавателей информатики высших образовательных учреждений //Science for Education Today. 2018. Т. 8.-№. 3. С. 23-36

maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir etish, sub’yektning ob’yektga ta’siri natijasida ob’yektning o‘zgarishi, deb ta’riflaydilar. Tadqiqotlarda keltirilishicha, keyingi paytlarda boshqaruv g‘oyalarining rivojlanishi pedagogik menejment muammolarini hal etish bilan bog‘liqdir. Pedagogik menejment atamasi orqali “maqsadga erishish hamda qo‘yilgan vazifalarni bajarishda insoniy, iqtisodiy va samarali yo‘llar bilan insonlarni boshqarish va vositalardan foydalanish”[23] tushuniladi. Demak, ta’lim va tarbiya jarayonlarini boshqarish bir qancha vazifalarning bajarilishini, ya’ni mazkur jarayon ishtirokchilariga zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratish, ularning faoliyatini tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish, tahlil qilish va ob’yektiv baholash, shuningdek, mazkur jarayonning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi vositalarni tanlash, ilmiy-metodik mahsulotlar tayyorlash, yangi pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta’minlash kabi vazifalarni ham amalga oshirishni nazarda tutadi. Demak, maktab rahbarlari nafaqat pedagogik tajribaga, balki ta’lim va tarbiya jarayonlarini boshqarishning funksiya va metodlari, ulardan foydalanish, boshqaruvning mohiyati, rahbarlik uslublari va ulardan foydalanish kabi tushunchalarga ega bo‘lishi muhim.

Ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish g‘oyalari tizimini bilish, aniq vaziyatlarda muammolarni hal etish hamda ixtiyoriy pedagogik tizimda ularni qo‘llashning natijalarini oldindan hisobga olishda yordam beradi. Ta’lim va tarbiya jarayonlarida turli vaziyatlarda erishilgan natijalarning samaradorligini tahlil qilish zarur bo‘lib, tahliliy jarayonda vaziyatli yondashuv o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Demak, ta’lim va tarbiya jarayonlarida vujudga kelayotgan vaziyatlarga ko‘ra o‘quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirib borish eng samarali usullardan biri hisoblanadi, bunda vaziyatli yondashuv ta’lim va tarbiya jarayonlari samaradorligini aniq vaziyatlarga ko‘ra aniqlashni ko‘zda tutadi. Bizning fikrimizcha, kreativ yondashuvning o‘ziga xos jihatlarini quyidagi yo‘nalishlarda ko‘rish mumkin:

-ta’lim-tarbiya jarayonining vaziyatlarini tahlil qilish asosida muhim

[23] Peregudov L.V., Saidov M.X. Umumta’lim maktablari ta’lim boshqaruv va iqtisodiyoti. – T.: 2002 y.312-b

ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni aniqlash;

-erishiladigan natijalarning samaradorligini turli vaziyatlarga ko‘ra oldindan belgilash.

-aniq vaziyatlarga ko‘ra ta’lim va tarbiya jarayonlarining samaradorligini ta’minlash uchun vaziyatli yondashuv texnologiyasini tatbiq etishda:

– ta’lim va tarbiya jarayonlarida vujudga kelayotgan vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish va ob’yektiv baholash;

– erishish mumkin bo‘lgan natijalarni surunkali vujudga keladigan turli pedagogik vaziyatlarga ko‘ra oldindan belgilash;

– ta’lim va tarbiya jarayonlariga tasir ko‘rsatuvchi omillarni hamda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarni oldindan tasavvur qilish asosida o‘quvchilar faolligini ta’minlash vositalarini tanlash alohida ahamiyatga ega. Ta’lim va tarbiya jarayonlarida jalb etiladigan sarf-xarajatlar, ya’ni vaqt, ortiqcha mehnat, qo‘shimcha metodik mahsulotlar va vositalarning me’yordan ortmasligini ta’minlovchi mavjud vaziyatlar va shart-sharoitlarni vujudga keltirishda kreativ yondashuv texnologiyalarini tatbiq etish o‘ziga xos ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunday texnologiyalarning amaliyotga tatbiq etilishi ta’lim va tarbiya jarayonlarida sarf etiladigan mehnat va vaqtni iqtisod qilishga xizmat qiladi hamda ta’lim va tarbiya jarayonlarida faqat o‘qituvchining o‘zi harakat qilishini bartaraf etish asosida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga imkoniyat yaratiladi. Demak, ta’lim va tarbiya jarayonlariga yana bir yondashuv, ya’ni o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etishga xizmat qiluvchi ijodiy yondashuv tatbiq etiladi. Ta’lim va tarbiya jarayonlarida maqsadlarni aniqlashtirish, o‘rganiladigan ob’yektni tanlash, maqsadga erishish uchun eng qulay bo‘lgan vositalarni aniqlash, ko‘zlangan natijalarning samaradorligini belgilash ko‘rsatkichlari va usullarini tanlash boshqaruvning ijodiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

Kreativ yondashuv asosida ta'lim jarayonini boshqarishni shakllantirish yangi Uyg'onish davri pedagogikasining hal qiluvchi jihati bo'lib, ta'limda ijodkorlik, moslashuvchanlik va innovatsiyalarni kuchaytiradi. Dastlab, ta'lim muassasalarini boshqarish qarorlar qabul qilish markazlashgan an'anaviy ierarxik

tuzilmalarga asoslangan edi. Biroq, bu yondashuv tobora ortib borayotgan xilma-xillik, innovatsiyalar va globallashuv bilan tavsiflangan zamonaviy ta'lim muhitlari uchun etarli emas. Shu bois XXI asrda ta'lim tizimining muammolari va imkoniyatlarini hal qilish uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlari zarur.

Ta'lim va tarbiya jarayonini boshqarish ham asosiy e'tiborni ko'nikma va bilimlarni o'zlashtirishga qaratgan holda doimiy takomillashtirish muhitini yaratishga qaratishi kerak. Bunga samaradorlik ko'rsatkichlaridan foydalanish, fikr-mulohaza va murabbiylik, ta'lim madaniyatini rivojlantirish orqali erishish mumkin. Umumiy sifat menejmenti (Total Quality Menejment (TQM)) - bu ta'lim tizimini doimiy ravishda takomillashtirish va rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydigan boshqaruv yondashuvi. Bu o'qituvchi va o'quvchilarni qamrab olgan yondashuv bo'lib, o'qitish jarayonining sifati va dolzarbligini doimiy ravishda oshirishga qaratilgan.

Kreativ boshqarish ijodkorlikni rivojlantirish va ta'lim tizimida tajriba va izlanishlarni rag'batlantirishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyalarni boshqarish ta'lim muassasalariga texnologik yutuqlar va ta'lim tendentsiyalaridan xabardor bo'lish imkonini beradigan ijodkorlik va tajribalar rivojlanishi mumkin bo'lgan muhitni yaratishga intiladi. U doimiy ravishda o'quvchilar bilimini yaxshilash va turli manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda hamkorlikni rivojlantirishning yangi usullarini izlaydigan tizimlarni yaratishni o'z ichiga oladi.

Ta'lim jarayonini samarali boshqarish ta'lim tizimini bir butun sifatida ko'rib chiqadigan kreativ fikrlash yondashuvini qo'llashni talab qiladi. Kreativ boshqaruv ta'lim tizimining turli tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlashga yordam beradi, bu esa murakkab ta'lim jarayonlarini yaxshiroq tushunishga olib keladi. Kreativ boshqaruv yondashuvi jarayonlarni uzluksiz takomillashtirishni ta'minlaydi, chunki u bir vaqtning o'zida ta'lim tizimining turli qismlariga ta'sir qiladi. Ta'lim menejerlari o'zgarishlar zarur bo'lgan sohalarni aniqlashlari va kreativ fikrlash yondashuvidan foydalangan holda ularni samarali hal qilishlari mumkin. Hozirgi ta'lim manzarasi o'qitish jarayonida ijodkorlik, innovatsiya va hamkorlikni rivojlantirish uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlaridan

foydalanishni talab qiladi. An'anaviy ierarxik tuzilmalar va markazlashtirilgan qarorlar qabul qilish asosida ta'lim muassasalarini boshqarish XXI asrda ta'lim tizimlari uchun endi etarli emas. Shu bois ta’lim muassasalari o‘quv jarayonlarini boshqarishda yanada moslashuvchan va kreativ boshqaruvni qo‘llashlari kerak. Umumiy sifat menejmenti, kreativ boshqaruv va kreativ fikrlash kabi zamonaviy boshqaruv yondashuvlaridan foydalangan holda ta’lim muassasalari o‘qitish jarayonining sifati va dolzarbligini oshirishi hamda o‘quvchilar, otaonalar va jamiyatning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini qondirishi mumkin. Umuman olganda, yangi Uyg'onish davri pedagogikasini qo'llab-quvvatlovchi ta'lim jarayonlarini samarali boshqarish uchun zamonaviy boshqaruv yondashuvlaridan foydalanish bo'yicha ta'lim menejerlarining malakasi juda muhimdir.

Umumiy o’rta ta’limda o’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda eng keng qamrovli va samarali usul-bu haqiqiy kasbiy muammolarni hal qilish, aniq vaziyatlarni tahlil qilish, o’quv guruhining birgalikdagi faoliyati, mustaqil ishlash shaklida amalga oshiriladigan harakat bilan tavsiflanadi. O’quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishda fanlarni tanlash, o’quv guruhlarini shakllantirish, tinglovchilar yoki talabalarning individual ish hajmi, salomatligini muhofaza qilish, shuningdek, amaliy tadbirlarning shakllari, soni va taqsimoti muhim hisoblanadi. Kreativ ta’lim-tarbiyada fanlarni tanlash, o’quv dasturini mustaqil tanlash yoki uni tanlashda ishtirok etish imkoniyati katta ahamiyatga ega. Majburiy fanlar majmuini qat ’iy belgilab beruvchi davlat standartidagi ta’lim muassasasining buyrug’i ham mavjud.

Maktablar erkin tanlash fanlarini o’qitishga o’tishi va istiqbolli muammolarni hal qilish uchun innovatorlarni tayyorlashi zamon talabidir. Kreativ oliy ta’lim ko’p va fanlararo tadqiqotchilarni tayyorlash uchun yangi turdagi ta’limdir. Ta’lim guruhlarini shakllantirish kreativ ta’limning muhim nuqtasidir.

Umumta’limda o’quv-tarbiya jarayonini boshqarishda turli nazorat shakllari: yozma ish, test sinovlari, suhbatlar, imtihonlar, fanlararo tadqiqotlardan foydalanish talab etiladi.

O'quvchilarning mustaqil ishlarini faollashtirish o'quv jarayonining kreativ darajasini oshirishning g'oyat muhim omilidir. U bir qator o'zaro bog'liq vazifalarni bajarish oshirish orqali amalga oshiriladi:

-talabalarning faolligini va bilish jarayoniga qiziqishini oshirish, o'rganish va ijodkorlikka shaxsiy qiziqish, yangi bilimlarni olish va mustaqil izlashga bo'lgan ehtiyojni shakllantirish, faollik va tashabbusning namoyon bo'lishini rag'batlantirish, barqaror ijobiy motivatsiyani shakllantirish, kognitiv, tadqiqot va ijodiy faoliyat uchun, ijodiy o'zini o'zi anglash va o'zini-o'zi takomillashtirishga bo'lgan ehtiyojni rivojlantirish, dalillar bazasini ishlab chiqishda mustaqillikka odatlantirish;

- talabalarni kreativ faoliyatning barcha turlariga jalb qilish uchun shart-sharoit yaratish, bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini yaratish, talabalarni ko'p tarmoqli tadqiqot va ilmiy ishlarga jalb qilish, fanlararo tadqiqot va ilmiy ishlarda tashabbus ko'rsatish uchun sharoit yaratish va táminlash;

- o'quvchilarning ijodiy tadqiqot jamoalarida o'zini-o'zi tashkil etish ko'nikmalari va mexanizmlarini rivojlantirish.

Birinchidan, amaliy tashkil etilgan bilimlar har bir o'quvchiga bilimlarning ahamiyatliligini anglash, hayotda qayerda va nima uchun kerakligini tushunish va qanday hayotiy muammolarni bartaraf etishda yordam berishini tasavvur qilish imkoniyatini yaratadi.

Ikkinchidan, olingan bilimlar bilan real, amaliy hayot o'rtasida chuqur mazmunli aloqalarni o'rnatish.

Uchinchidan, kreativ faoliyatning optimallashgan yo'llarini o'zlashtirish va mustahkamlash, qarama-qarshilik va ziddiyatlarni samarali hal qilish uchun ko'nikma va ko'nikmalarni singdirish, bu esa olingan bilimlarni turli va notanish vaziyatlarda qo'llash imkoniyatini beradi.

To'rtinchidan, o'quvchilarning amaliy ko'nikma va malakalarni, shuningdek, aqliy hujum, boshqa ob'ektlar bilan assotsiativ aloqalarni o'rnatishga asoslangan ob'ektning yangi g'oyalari va xususiyatlarini izlash usuli kabi o'ziga xos evristik vositalar va usullarni egallashi.

